

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX FAKUL'TETI

Himoya qilishga ruxsat beraman
Tarix fakulteti dekani v/b
_____ dots.A.Pardayev
_____ 2019 y.

**5110600 – tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun**

“Jizzax Rossiya mustamlakachiligi iskanjasida” mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: B.Kuchkarov
Ilmiy rahbar: dots.A. Xolmurodov

BMI tarix o'qitish metodikasi kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № ____ . ____ . 2019 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ PhD.F.Toshboyev
(imzo) (Ismi va sharifi)

Jizzax – 2019

MUNDARIJA

Kirish.....2

I-bob. Jizzax Podsho Rossiyasi bosqini va mustaqilchilik siyosati davrida.

1.1 Turkiston Rossiya bosqini arafasida.....8

1.2 Jizzaxni bosib olinishi.....15

1.3 Jizzax Rossiya imperiyasi mustaqilchilik siyosat davrida.....30

II-bob Jizzax qo'zg'oloni

2.1 Jizzax qo'zg'oloning boshlanishi va uning yengilish sabablari.....46

2.2 Qo'zg'olonchilarga nisbatan podsho Rossiyaning ma'murlarining qo'llagan jazo choralari.....52

III. Yangi pedagogi texnologiya uslubi asosida darsni tashkil etish.....64

IV. Xulosa.....68

V. Foydalanilga adabiyotlar.....71

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Vatanni onaga qiyoslaydilar. Zero bu bejiz emas. Ona siynasida bolaga oq, sut bersa, ona-vatan xalqini, elini e'zozlaydi, tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi. Inson uchun ona-vatandan boshqa aziz va mo'tabar, muqaddas narsa yo'q, va bo'lmaydi xam.

Xalqimiz Vatan ostonadan, inson tug'ulib, ko'z ochgan gushadan, kindik qoni tomgan xonadondan, tuproqdan boshlanadi deyishadi. Bu xaq gap. Insonning qalbi, orzu- umidlari, quvonchlari kelajagi ona-Vatani bilan bog'liq kechadi. SHu boisdan ona-Vatanga mexr-muxabbat va sadoqatli bulish, uning xar xovuch muqaddas tuprog'ini tutiyodek ko'zga surtish, unga nisbatan bir umr farzandlik xissi bilan yashash, uni e'zozlash xar bir kishi uchun xam farz, xam qarzdir.

Bizning borlig'imiz, tilimiz va tafakkurimiz, madaniy etnik. qiyofamiz, udum va an'analarimiz, milliy tuyg'ularimiz — bularning barchasi Turon, Turkiston, O'zbekiston deya atalmish muqaddas Vatanimiz, uning qadimiy shaxri Jizzax nomi bilan mushtarak. Chunki qadimiy Jizzax voxasi xam O'zbekistonning otabobolarimiz yashagan, kindik qoni tuqilgan, kelajak avlodlariga boshpana, baxt va saodat bera olgan muqaddas zamini xisoblanadi. Jizzax diniy va dunyoviy nuqtai nazardan xaqiqiy ma'noda Allox nazari tushgan, nafaqat islom ta'limoti, balki kalom falsafasi, shariat ustunlari yetishib chiqqan qadimiy tarixga ega bo'lgan Yurt hisoblanadi.

Jizzax qal'a shaxri Nurota va Turkiston tizma tog'larini ajratib turuvchi, kengligi 120 — 130 metrga tug'ri keluvchi Ilono'tti (Temur darvozasi) darasining shimoliy qismida Sangzor vodiysida shakllangan qadimiy shaxardir.

Sharqni G'arb bilan bog'lovchi qadimiy Buyuk Ipak karvon yo'lining aynan Ilonutti darasidan o'tishi shaxar mavqeining o'sishi va savdo markaziga aylanishiga sabab bo'lgan. XIX—XX asrlarda barpo etilgan Krasnovodsk—Toshkent temir yo'li va Katta O'zbekiston traktining Jizzax orqali o'tishi shaxar rivojida, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayotida muxim rol o'ynadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi

Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: „Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi“, deb gakislagani bejiz emas. 1996 yil 26 oktyabr ko'pi Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining sessiyasida so'zlagan nutqida: “Jizzax ikki ming yildan ko'proq tarixga va go'zal tabiatga ega bo'lgan qadimiy maskan O'zbek xalqining ko'p-ko'p asl farzandlari mana shu zaminda tarbiya topgan, o'z fidoyiligi bilan el-Yurtimizning obrusiga obru, salohiyatiga salohiyat tushgan, tarixda o'zlarining pok nomlarini qoldirgan“deb ta'kidlab mutaxassislarni kelgusida ushbu qadimiy shahar tarixini mukammal o'rganishga da'vat qilgan edi.¹

O'tmishda kichik qal'ashaharcha bo'lgan, mustaqilligimizni qo'lga kiritganligimiz tufayli ijtimoiy-iqtisodiy soxalari, sanoati taraqqiy qilgan, xalq ta'limi va madaniyati rivojlanayotgan Jizzax shaxri tarixini bugungi kunda istiqloq sharofati ila chuqurroq o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Kitobxonlar xukmiga havola qilinayotgan mazkur kitobda shaxarning o'tmishi va buguni, maorif va madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda kelajak taraqqiyoti, uning mehnatsevar kishilarining bunyodkorlik yo'lida qo'lga kiritayotgan Yutuqlari bayon etilgan.

Jizzax — O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan bo'lib, miloddan avvalgi bir minginchi yillarda yuzaga kelgani ko'plab tarixiy manbalarda tilga olinadi. Boy tarixga ega bo'lgan shahar urbanistik jarayonining yuzaga kelishi bronza davriga borib taqaladi. Garixchi arxeolog olimlar tomonidan shaxarning yoshini aniqlash, uning tarixiy obidalari qoldiqlarini o'rganish borasidagi tadqiqot ishlari davom etmoqda.

Mavjud tarixiy manbalar Sharqni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ustidagi chorrahada, qulay geografik xududda joylashgan Jizzax shaxrining yoshi ming-miig yillar bilan o'lchanishidan dalolat bermoqda. Jizzax xalqlar davomida turli mamlakatlar, xukmdorlar, bek amaldorlar, olimu shoirlar, din rahnamolari,

¹ Karimov I.A. “O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura”. T., 1996, 80-bet.

oddiy kishilar, xullas, barcha-barchaniig diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan. Tarix guvoxdik beradiki, kddingi fors podshoxdari axoma- niylar, Yunon-makedonlar, arablar, mugullar va nihoyat Rossiya imieriyasi xukmdorlari bilan ota-bobolarimiz o'rtasida Jizzax shaxri uchun bir necha bor qirgin-barot janglar bo'lib utgan va shaxar batamom yakson qilib tashlangan. Shaxarning bunday janglarda bir necha marta vayron qilinganini aytish va uning adogiga etish qiyin. Ammo tarixda Dizaq Gazo, Tayzaq, To'zixdq, Faknon va boshqa nomlar bilan shuxrat qozongan bu shaxar xar gal yonib vayron bulsa-da, o'z urnida yangidan tiklanavergan, gullab-yashnayvergan. Bugungi kunda shaxarning ko'xna tarixidan guvoxlik beruvchi Kaliya qal'asi va O'rda qal'asida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida xozirgi kungacha topilgan va topilayotgan toshdan, temirdan yasalgan mehnat qurollari, kulolchilik zargarlik temirchilik buyumlari, qadimgi qurol yarog'lar, tangalar va boshqa ashyoviy dalillar, kiyim kechak qoldiqlari ana shundan dalolat bermoqda.

Arxeologik topilmalar shaxarda turli dilar xam xukm surganini ko'rsatmoqda. Jizzaxning qadim axolisi dastlab zardushtiylik otashparastlik keyinroq islom diniga e'tiqod qilgani tarixdan bizga ma'lum. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda din erkinligi, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umum insoniy qadriyat sifatida mavqei tiklanib, diniy ulamolarning qadr qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

Jizzax shaxri ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Yunon-Rim tarixchilari Gerodot, Strabon, Ktetsiya, Ksenafont, Arrian, arab muarrixlari: Xofiz-Tarobiy, ibn Xavkal, ibn Xurdobek Istaxriy, ibn Batuta, Yoqut, Xamaviy, Ibn Arabshoh Muxammad Solih Xofiz Tanish, Xamidulla Kazviniy, Ali Yazdiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur va boshqa allomalar o'z asarlarida shaxar tarixi, axolisining urf-odatlarini, dini, madaniyati xaqida bitiklar yozib qoldirishgan. O'zbek Sharqdinshunoslari, akademiklar Y. G'ulomov, A. Muxammadjonov asarlarida, shuningdeq zamondosh olimlardan X Ziyoev, N. Ne'matov, S. Anorboev, M. Pardaev, D. Muxammedov, A. Berdimurodov, M. Isonov, N. Nemseva, S. Nishonov,

U. Nosirov, X. Xaydarov, M. Pardayev va boshqalarning monografiya, risola va ilmiy maqolalarida shaxar tarixi, madaniyati, xalqining turmush tarzi haqida muxim ma'lumotlar berilgan.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va uning zulmidan sabr kosasi to'lgan Jizzax shahri aholisining 1916 yilda front orqasidagi mudofaa inshootlari va xarbiy yo'llar qurish ishlariga safarbar etilishiga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik qo'zg'oloni tarixda o'chmas iz qoldirgan. Bu qo'zg'olonga boshchilik qilgan Nazirxuja Abdusalomov, Ziyo Qori Abdullaev, Muxammadraxim Abdurahimov, Komil Qori Bobojonov, Abduraxmon jevachi Abdujabborov, Ismoil bobo Ro'zimuxammedov, Nuriddin hoji Ma'rufxujaev, Muxammadxuja Xamroev singari Yurt parvar insonlar Rossiya imperiyasi xukumati harbiy dala sudining xukmi bilan qatl etiladilar. Bugungi kunda shaxarda Jizzax qo'zg'oloniga bag'ishlangan ko'chma ko'rgazma va O'rda tarixi mo'zeyi tashkil qilingan, qo'zg'olonchilar nomi abadiylashtirilmoqda.

Malakaviy bitiruv ishimizda xalqimiz azaldan mustaqillik uchun, o'z Vatani va dini uchun, millat ravnaqi uchun kurashib kelganligi, sovet hokimiyati zo'rlik bilan o'rnatilganidan keyin sodir bo'lgan adolatsizliklar va siyosiy qatag'onliklarga yo'l qo'yilgani, xalq orasidan chiqqan ziyolilarga „xalq dushmani“ degan qora tamg'alar bosilgani, xalqimizning asl farzandlari Xaydarbek Abdujabborov, Orifjon Olimjonov, Boyza Mirazimov, Anqaboy Xudoybaxtov, Muhiddin Xujayev, Maxmud Rozixonov singari kuplab rahbar xodimlar, taniqli yozuvchilar, jurnalistlar qatag'on qilingan- ligi, ularning hayoti va faoliyati haqida alohida hikoya qilingan. Xozirgi kunda qatag'on qurbonlari oqlanib, ularning nomi abadiylashtirilgan.

SHaxardan utgan yillar mobaynida juda ko'plab taniqli kishilar — O'zbekiston xalq shoiri Xamid Olimjon, davlat va jamoat arbobi, taniqli yozuvchi SHarof Rashidov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, yozuvchi, dramaturg va olim Sarvar Azimov, mashxur jarroh, akademik O'ktam Oripov kabi xorijiy mamlakatlarda ham e'tirof etilgan tibbiyot xodimlari, ko'plab taniqli kishilar

yetishib chiqqan. Kitobda Mehnat qaxramonlari Xamroqul Nosirov, Seit Memetovich Toirov, O'zbekiston qaxramonlari Parva Ziyotov, Marat Zokirov, armiya general polkovnigi Tulqin Qosimov, militsiya general mayori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xuquqshunos Otamurod Muxammadiyev, Jizzax shaxrining sobiq rahbarlari Ubaydulla Turaqulov, filologiya fanlari nomzodi Nizom Qushoqov va boshqalarning faoliyati bayon etilgan. SHuningdek kitobda Ikkinchi jaxon urushi yillarida qaxramonlik ko'rsatgan urush qaxramonlari Juraqul Turasv, Eshonqul Ismoilov, Juraxon Usmonov, Egor Ivanin, Ivan Rijov va boshqalarning urushda ko'rsatgan jasoratlari, shaxarda front orqasini mustaxkamlash uchun mehnat frontida xizmat chekkan oddiy mehnatkash xalqning ibratli ishlari ham keng yoritilgan.

Ikkinchi jaxon urushi yillari davridagi shaxar tarixi mamlakatimiz tarixining o'zviy bir qismi bo'lib, bu davrni xalqimiz hech qachon unutmaydi. SHaxarda urush faxriylariga, ularning oila a'zolariga moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatilmoqda. Fashizm ustidan qozonilgan Buyuk g'alaba — 9 may kuni shaxarda xar yili „Xotira va qadrlash kuni“ sifatida keng nishonlanmoqda. Urush qurbonlarini xotirlash uchun „Xotira“ majmuasi tashkil qilingan bo'lib, „Mangu olov“ monumenta atrofi alvoya gullardan iborat gulzorlar, ko'm ko'k daraxtlar bilan o'rab olingan.

Jizzax viloyati 1973 yil 29 dekabrda tashkil topgan. Jizzax shaxri viloyatning ma'muriy markaziga aylantirilishi munosabati bilan uning sanoati, qurilishi, transport, communal xo'jalik madaniy maishiy xizmat, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat soxalarida Yuz bergan o'zgarishlar kitobda keng yoritilgan.

Jizzax shaxrida mustaqillik yillarida ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy soxalarda keng kulamli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarda turli yillarda shaxar xokimi bo'lib ishlaganlar marxum Axmad Soatov, marxum Sarvar Xudoyorov, viloyatning sobiq xokimi, xozirda O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri SHavkat Mirziyoyev faoliyatlarini yoritishga keng o'rin berilgan.

SHaxarda madaniy qurilish, fan, ta'lim - tarbiya soxasida ham bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti,

Jizzax politexnika instituti, Jizzax oliy xarbiy aviatsiya bilim yurti, 7 ta kasb -xunar kolleji, 3 ta akademik litsey, 27 ta umumta'lim maktablarida 42 mingdan ziyod uquvchi ta'lim-tarbiya olmoqda, 30 ta maktabgacha ta'lim muassasasida 6 mingdan ziyod kichikintoylar tarbiyalanmoqda. Axoliga tibbiy yordam ko'rsatish uchun juda katta baza yaratilgan. Shaharda 17 ta tibbiy muassasa mavjud bo'lib, 211 oliy ma'lumotli va 414 nafar o'rta malakali tibbiyot xodimlari axoli sog'lig'ini muxofaza qilishda faol ishtirok etayapti. Axoliga tibbiy xizmat ko'rsatishda tibbiyot fanlari doktorlari, professorlar: Muxtor Eshbekov, Abdumajid Abdujalilov, Sarimbek Navro'zov, tibbiyot fanlari nomzodlari Sabotulla Musayev, Mirzabek Davronov, Baxtiyor Bobojonov, Ozod Qurbonov, shifokorlar Dilbar Mirzayeva, Ilhom Umrzoqov, Vaxob Ochilov, Pulat Boboev, Turg'un Roziyev, Eduard Noriyev, Buron Sirliyev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan shifokorlar Erkin Imomnazarov, Xolida Olimova va boshqalar axoliga sidqidildan xizmat qilmoqdalar.

Jizzax shaxar raxbariyati oldida bugungi kunda shaxar sanoatini rivojlantirish, shaxarni obodonlashtirish, qurilish, axolini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq g'oyat mas'uliyatli vazifalar turibdi. Xokimlik shaxarning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy xayotini rivojlantirish borasida jiddiy shug'ullanmoqda. Jizzax shaxri o'zining ijtimoiy-iqtisodiy axvolini yanada tiklab olish orqali O'zbekistonning kelajagi Buyuk davlat bo'lishiga munosib xissasini qo'shadi, degan umid bildiramiz.

I-bob. Jizzax Podsho Rossiyasi bosqini va mustaqilchilik siyosati davrida.

1.1 Turkiston Rossiya bosqini arafasida

XV asr oxirlarida temuriy shaxzodalar va mulkdor zodagonlar o'rtasidagi nizo - fitnalar, taxt uchun ko'rashning avj olishi natijasida temuriylar saltanati deyarli mustaqil bo'lib olgan bir necha viloyatlarga bo'linib ketadi. Temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan paytdan foydalangan SHayboniyxon Utror, Sabron, Yassi (Turkiston) va boshqa shaxarlarni egallagach, 1499 yili Sirdaryodan o'tib, Jizzax Qarshi va SHaxrisabzqacha bostirib kelib, katta ulja bilan Dashti Kipchoqda qaytib ketadi. Temuriylar saltanagini yeteklab qolish maqsadidagi Zaxiriddin Muxammad ibn Umarshayx Mirzo — Boburning sa'y -xarakatlari xam zoye ketdi. 1501 yil aprel oyida Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda- Bobur qo'shinlari yengiladi. Bobur Mirzo Samarqandni tark yetib, Toshkentga tog'asi Maxmudxon xuzuriga yo'l oladi. Bobur Mirzo yo'lda otdan yiqilib, boshidan jaroxlatlanadi va ming azob- uqubatlar bilan Ilonutdi darasidan utib, Jizzaxga keladi. Bobur Mirzo bu vokzalarni shunday tasvirlaydi: „Kech namozgar Ilonuttida tushub, ot ulturub, etini shishlab, kabob qilib, otni laxza tindurub, otlanduk. Tongdin burunoq Xaliliya kentiga kelib tushduk. Xaliliyadan Zak (Dizak) kelindi, ul fursatda Zakta Xofiz Muhammadbek duldoyning o'g'li Toxir duldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar, arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usratgin mundoq arzonlik, va andoq baliyattin mundoq amonlikda keldik. Umrimizda muncha farog'at qiil- maydur eduk. Uch-to'rt kun Dizakta istiroxat qilduk. Andin so'ng O'ratepa sari azimat qildik.²

1503 yilda SHayboniyxon katta qo'shin bilam Toshkentga yurish boshlaydi. Toshkent xoni Maxmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini SHayboniyxon tomonidan Sirdaryo buyida tormor qilinadi. Bobur Mirzo 200 — 300

² Bobur. Boburnoma. T., 1996, 115-bet.

navkari bilan Xisor tog'lari orqali Afg'onistonga ketadi.

SHu tarifa, Jizzax Muxammad SHayboniy tomonidan egallanadi va SHayboniylar davlati tasarrufida bo'ladi. 1510 yilda Eron shoxi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan bo'lgan jangda Muxammad SHayboniyxon xalok bulgach, butun Xuroson Ismoil Safaviy tomonidan egallanadi. Movarounnaxr SHayboniylar tasarrufida ishladi. SHayboniylarning Movarounnaxrda tashkil etgan davlati Ubaydullaxon davrida, 1533 yilda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataldi va Jizzax butun XVI asr davomida Buxoro xonligi tasarrufida bo'ladi.

Buxoro xonligini mustahkamlashda Iskandarxoning o'g'li Abdullaxonning xizmati katta bo'ldi. Toshkent hokimi Navruz Axmadxon (Baroqxon) 1551 yilda Samarqandni egallab, 5 yil davomida xokimiyatni boshqaradi. 1556 yilda Baroqxon vafot etgach, Abdullaxon tog'asi Pirmuxammadni xon yetib ko'taradi va 1557 yilda o'zi Buxoroni egallaydi. Abdullaxon II 1556 — 1582 yillarda Baroqxonning avlodlari Bobo sulton va Darveshxonlarga qarshi, Xisor va Samarqand sultonlariga qarshi uzoq yillar urush qilib g'alaba qozonadi. Konli janglardan biri 1557 yilda Ilono'tti darasida bo'ldi. Abdullaxon II Ilonutti darasidagi jangda katta xarbiy maxorat kursatdi va jangda g'alaba qozonadi. Bobo sulton yana fitna uyushtirib, 1578 yilda Samarqand sari qo'shin tortadi. Bu xabar Abdullaxon II ga yyetib kelgach, o'z birodarlari, arqoni davlatlari xamda a'yonlari bilan dushmanlarga qarshi borish xaqida maslaxatlashadi. Abdullaxon II qo'shinlari 1578 yil 10 iyun, shanba kuni Konigildan chiqib, Jizzax tomon yuradilar.³ Ikki tomonning ilg'or kuchlari Jizzaxdan 24 km janubi- sharqda joylashgan Raboti Malik (Rabot kishlog'i)da to'qnashadilar va Bobo sultonning ilg'or qismi yengilib, bir qismi asirga olinadi, bir qismi orqaga qochadilar. Abdullaxon II asirga olinganlardan dushmanlarning soni va kayfiyatini bilib oladi va Dizak (Jizzax) mavzeiga kelib, baland chodir tikib, 10 kun katta jangga tayyorgarlik ko'radi, Jizzaxda ikki kun tuy beradi. SHundan keyin 1578 yil 25 iyo'l juma kuni Abdullaxon II Zomin tomondagi dushmanga qarshi yurish

³ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. T., 1996, 8-bet.

boshlaydi va 30 iyo'lda Qizil ravotning g'arbiy tarafidagi Achchi qishlog'iga yetib boradi.

Zomin tumanidagi Achchi qo'rg'oni yonida Bobo sulton, Muxammad SHarof Sulton, Muxammad Qosim Sultonning birlashgan qo'shiniga qarshi Abdullaxon II yana jangga kiradi va g'alaba qozonadi. Bu urushlarda Jizzax xam katta talafot ko'radi. Axoli xozirgi eski bozordagi O'ratepaga ko'chishga majbur bo'lgan.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sarxatlarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan edi. Abdullaxon II pul isloxati o'tkazib, oltin va kumush pul zarb etishni yo'lga qo'yadi. Bu pullar xonlikning butun xududida, jumladan, Jizzaxda xam muomalaga kiritiladi. Natijada Jizzaxda savdo-sotiq xunarmandchilik ishlari rivojlandi, tegirmonlar juvozxonalar, savdo-sodiq, rastalari, rabotlar, masjidlar qurildi.

Abdullaxon II davrida Zarafshon daryosidan Jizzaxgacha Tuyatortar nomli kanalning qayta tiklanishi, qurilishi natijasida Jizzax voxasida dexqonchilik ishlari yanada rivoj topdi. G'allachilik, bovdorchilik ishlari rivojlandi. Bug'doy, arpa, juxori, mosh, poliz va sabzavot ekin maydonlari kengaydi. Chorvachilik xam qishloq, xujaligining yetakchi tarmogi sifatida rivojlanadi. Gusht, sut, jun, teri va boshqa chorvachilik maxsulotlari yetishtirish usdi. Xo'kizlardan yer xaydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilgan.

XVII asr boshida 1601 yilda Buxoro xonligida xokimiyat Ashtarxoniylar qo'liga utadi. Biroq Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida ichki ziddiyatlar kuchayib bordi, xonzodalar O'rtasida xokimiyat talashib o'zaro urushlar davom etdi. Buning ustiga Xiva xonligi bilan Buxoro xonligi o'rtasida xam tez-tez urushlar bo'lib turdi. Davlat boshqaruvidagi boshboshdoqdik, tinnmsiz urushlar mamlakatning, shu jumladan, Jizzaxning ijtimoiy-ik.tisodiy hayotiga jiddiy zarar etkazdi, albatta.

Xotam Bozorovning "Jizzax ovozi" gazetasining 2000 yil 15-aprel sonida chop qilingan "Jizzax muzofotining qadimgi hokimlari xaqidag"i mak;olasida bayon

qilinishicha, XVII asrning birinchi yarmi ashtarxoniylar sulolasi uchun O'ratepa, Zomin, Jizzax xududlari strategik ahamiyatga ega bo'lgan joylardan biri xisoblangan. Makrlada yozilishicha, agar shunday bulmaganida, Buxoro xoni Nodir Muhammadxonning o'g'li Abdulazizxon (1645—1681) uzini Buxoro xoni deb e'lon qilinishi va toj kiydirilish marosimini O'ratepaning saroy darasida o'tkazmagan bo'lardi.⁴

Bu tarixiy voqeadan keyin Abdulazizxon 1645 yilda Turk (O'zbek) yuz urug'idan bo'lgan Boqibiyini O'ratepa, Zomin, Jizzax Xujand xududlariga hokim yetib tayinlaydi. Biroq ikki- uch yil mobaynida Jizzax Zomin, O'ratepa, Xujand hokimlari bir necha marta almashtiriladi. Qoravulbegining o'g'li xoji Yovqoshtibiy 1659 — 1660 yillarning yetti-sakkiz oyi mobaynida xukmronlik qiladi. Undan keyin birin-ketin CHulibiyning o'g'li SHodibiy, Mirmuxammadning o'g'li Muxammad Yasovul xokimlik qilgan. Toj-taxt uchun bo'lgan o'zaro ko'rashlar aholining turmush darajasini pasayishiga olib keladi. Usha davrga oid biror tarixiy obida kurilmagani, bu davr adabiyoti va san'ati- ning past saviyada ekanligining boisi ham shunda edi. Bu davrda aholi o'rtasida turli xil soliqning oshirilishi aholi noroziligining kuchayishiga sabab bo'lgan edi.

1681 yili Abdulazizxon Buxoro taxtidan voz kechgach, hokimiyat boshiga uping ukasi Subxonqulixon (1681 — 1702) keladi. Usha yili O'ratepa, Zomin, Jizzax xududlariga Muxammad Pahimbiy otaliq xokimlik kiladi. U Buxoro mul- kining tarixida ham katta maqomga ega edi. Subxonqulixon ayrim muhim ishlarni Muxammad Rahimbey otaliq bilan maslaxatlashib qolardi. U o'z tasarrufida bo'lgan xududlarni bosqinchilardan muxofaza qilish bilan birga Zomin, Jizzax, Yom, Saigzor va boshqa joylarda dehqonchilik, mayda xunarmandchilik hamda savdo ishlarini yaxshilash borasida ko'p ishlarni amalga oshiradi.

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki ko'rashlar, markaziy hokimiyatining zaiflashuvi natijasida ikkiga bo'linib ketdi. 1709 yilda atrofida yashab turgan o'zbek

⁴ "Jizzax ovozi" gazetasi. 15 aprel. 2000 y.

qabilalaridan biri — minglar xokimiyatni o'z qo'llariga ola dilar va o'z yetakchisi SHoxruxbiyni hokimiyat tepasiga kutaradilar. U shu tariqa, 1710 yilda Qo'qon xonligi tashkil topadi. Uzoq yillar davomida Zomin, Jizzax O'ratepa va Xujand uchun Buxoro va Qo'qon xukmdorlari o'rtasida qirg'in barot urushlar bo'lib turdi. Mazkur xududlar ikki xonlik o'rtasida urush maydoniga aylanib, qo'ldan qo'lga o'tib turdi.

SHoxruxbiyning o'g'li Qo'qon xoni Abdurahimbiy (1721 — 1733) davrida Xujand, O'ratepa, Zomin, Jizzax Qo'qon xonligi tasarrufiga olinadi. Qo'qon xonlari Xujand viloyatiga hamda O'ratepa, Zomin va Jizzaxga hokimlar tayinlaydi. Norbutabiy (1798 — 1810) davrida Iriskulbiy O'ratepaga Hokim yetib tayinlanadi. Keyinroq Jizzaxga Fozilbiy keladi va Buxoro xonlari xujumidan saqlanish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshiradi. U Jizzaxda turib, jiz-zaxlik, zominlik kuchli, jasur va mergan yigitlarni tug'ilab, askarlar sonini ko'paytiradi. Jizzax va Zomin qalalarining atrofidagi devorlarni ta'mirlash, buzilgan joylarni qayta tiklash ishlarini uyushtiradi. Fozilbiy bir guruh otliqlarni O'ratepaga yuborib keyin o'ng yo'l bilan Jizzaxga ketishlarini buyuradi. Otliqlar bu topshiriqlarni qanday buyurilgan bo'lsa, shunday bajaradilar. Bu xabar Irisqulbiyga yyetib boradi. U dushmanni quvvatsiz deb, pisand qilmay quva boshlaydi. Yo'lda ularni kutib turgan Fozilbiyning o'g'li Xudoyorbiy askarlari bilan qattiq urush boshlanadi. Urushda Iriskulbiy xalok bo'ladi, tirik qolgan askarlari qo'lga tushadi. SHunday qilib, Fozilbiyning o'g'li Xudoyorbiy O'ratepa xududlariga hokim bo'ladi.

Eron shor Nodirshoh ko'p joylarni bosib olgan bo'lsa ham, Fozilbiyni o'ziga bo'ysundira olmadi. Fozilbiy eron - liklar va buxoroliklardan ham O'ratepa, Zomin, Jizzax xududlarining mustaqilligini, daxlsizligini saqlab qolishdi. SHu bilan birga u qo'shinlarining kuch-kudratini, o'zining ta'sirini, obru-e'tiborini, xususan, yuzlar ichida yuqori pog'onalariga ko'tardi.

Fozilbiy bir necha marta Buxoroga qarshi urushlarda qatnashdi. Masalan, 1747 yili Fozilbiy Nurota, Keshtut, Urgut, Xisor, SHaxrisabz xokimlari bilan birgalikda

Buxoro xonligining susayib qolganligidan foydalanib, uning xududiga bostirib kiradilar. 1749 yil 17 iyo'lda ular Qarshini egallaydilar. Keyin Xatirchi, Karmana va Karmana, Kattaqo'rg'oni ham bosib oladilar. Buxoro bilan sulaga imzo chekib, Samarqandga kelib, kichik o'g'li Bobobiyni Samarqand hokimi yetib tayinlaydi va o'zi yana Uratepaga qaytib keladi.

Fozilbiy va uning o'g'illari Xudoyorbiy, Bobobiy davrlarida O'ratepa, Zomin, Jizzax xududi ancha kengayadi. Sharqiy tomondan Xojaboqirg'onsoy, Nov, Xujand, Konibodomning maxramigacha, shimoli - sharq tomonidan Sirdaryo, Bekobod, Xovosni o'z ichiga olib, shimoldan Toshkent bilan, g'arbdan Samarqand bilan chegaradosh bo'lib, Jizzax, Yom, Pishog'or, Zomin kabi shaxarlarni o'z ichiga olardi.

Agar ikki-uch urushni hisobga olmaganda Fozilbiy, Xudoyorbiy, Bobobiy xukmronlik qilgan davrlarda O'ratepa, Jizzax Zomin, Yom, Pishog'or kabi qo'rg'onlar, qal'alar va ularning atroflaridagi qishloqlarning axolisi tinch, o'zaro ichki urushlarda bo'ladigan talon-tarojlarga uchramasdan xayot kechiradilar. Xudoyorbiy vafotidan keyin uning o'g'li Bekmurodbiy O'ratepa mulkiga xokimlik qiladi.

Xudoyorbiy vafot etganidan keyin O'ratepa va uning tasarrufidagi xududlarni, jumladan, Jizzaxni ham Buxoroxoni bosib oladi va O'ratepaga Xudoyorbiyning ukasi, Jizzaxning sobiq hokimi Bobobiyni, Xujandga Bekmurodbiyni hokim yetib tayinlaydi.

Buxoro xoni Shoxmurod vafot etganidan keyin Bobobiy (ba'zan uni Bobo Parvonachi deb ham tilga oladilar) Jizzax shahrini Buxoro xonidan tortib olish rejasini tuzadi. Rejaga asosan u Jizzaxni qilidiladi. Bu vaqtda Jizzaxda Muxammad Aminxujaning o'g'li Muxammad Yusufxuja hokimlik qilardi qamal vaqtida esa u Kattaqo'rg'onda edi. Bu xabarni eshitgach, Hokim tezda Jizzaxga yyetib keladi. Urushda Bobobiy yengiladi. Ko'p o'tmay Bekmurodbiy o'zining amakisi Bobobiyni o'ldirib, uning o'rniga O'ratepaga hokim bo'ladi.

Buxoro amiri Xaydar O'ratepani bosib olish uchun Zominga kelib, u yerda bir oz turadi. 22 yoshli O'ratepa hokimi Bekmurodbiy va uning a'yonlari amir Xaydarni kutib olish uchun ko'p sovg'alar olib Zominga keladilar. Ammo amir Xaydar Bekmurodbiyning ushlab, Bobobiyning o'g'illari qo'lga o'ldirishga topshiradi. Amir Xaydar O'ratepaga Erna- zarbiyni, Zominga Aflotun G'ulomni Jizzaxga Xusaynbiyni xokim yetib tayinlab, Buxoroga qaytib ketadi.

Ko'p utmay Pishog'or hokim i Ma'raxim yoki Muxammad Rahim Otaliq (ayrim qo'lyozmalarda Atolikhbek deb tilga olinadi) O'ratepaga Hokim yetib tayinlanadi. Uning tasarrufiga Jizzax Zomin, Yom xududlari bo'ysunadi.

1826 yildan Buxoroda amir Nasrulloning xokimligi boshlanib, Pishog'or Hokimi Atolihbekni Buxoroga chaqirtiradi. Buxoro amiri Nasrullo o'z xokimiyatini mustahkamlash maqsadida Jizzaxni Atolihbekdan tortib oladi. Bunga, birinchidan, Atolihbek rozi bo'lmagan bo'lsa, ikkinchidan, Jizzax shaxri aholisi o'z noroziligini bildiradi. Bu vaziyatdan foydalangan hokim xoni Muhammad Alixon (1822 — 1842) O'ratepa va uning xududlarini bosib oladi. Atolihbek SHaxrisabzga qochib ketadi. Ko'p o'tmay O'ratepa hokimligi Isobekka o'tadi. Zomin, Yom ham unga bo'ysunardi. 1849 yil ning oxirlarida O'ratepaga Abdug'afforbek hokim yetib tayinlanadi.

XVII — XIX asrlar jahon tarixida moddiy va madaniy yuksalish davri bo'lgan bir davrda O'rta Osiyo xonliklari bu ijobiy jarayonlardan chetda qolib qoloqlikka, turg'unlikka yuz tutdi. Asrlar mobaynida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan axolining uchga bulinib ketishi, xonliklar o'rtasidagi urushlar, xar bir xonlik ichidagi o'zaro hokimiyat uchun tinimsiz davom etgan ichki ko'rash viloyat va tumanlarni, qolaversa butun mamlakatni xonavayron qilardi. O'zaro urushlar oqibatida u yoki bu qabilalarning yashab turgan joyidan kuchirilishi etnik nizolarni keltirib chiqarardi, ularning bir butun xalq bo'lib, jiplashib yashashiga raxna solardi. Davlat darajasida ham,

viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan, tushunchasining anglab yetilmadi. Axoli xon va amaldorlarnipg zuravonligidan, o'zboshimchaligidan azob chekardi, turmush darajasi nochor edi. Xonliklardagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik qo'shni mamlakatlarni o'z tasarrufiga kiritib olish siyosatini yuritayotgan Rossiya imperiyasiga qo'l keldi. Xonliklardagi parokandalik ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustam- lakaga aylanishiga olib keldi.⁵

⁵ Xaydarov X. Jizzax tarixi. T. 2009, 76-bet.

1.2 Jizzaxni bosib olinishi

Turkiy xalqlar yashovchi keng xududlari i bosib olish Rossiya podsholarining azaliy orzusi edi. Rossiya imperiyasi Kozon, Ashtarxon (Astraxan) va Sibir xonliklarini, qozoqlar va yashovchi Kichik juz, o'rtta juz, Katta juz xududlarini egallagach, O'rtta Osiyo xonliklarini bosib olishga kirishadi. O'rtta Osiyo xonliklari shimoliy chegaralari yaqinida 46 ta katta va 96 ta kichikroq xarbiy qal'a va istexkomlar qurdirib harbiy qo'shinlarni joylashtiradi. Xonliklarni bosib olish vazifasi Rossiya podshosi tomonidan Orenburg general-gubernatori V. A. Perovskiy va G'arbiy Sibir general-gubernatori general G. Gosford zimmasiga yuklanadi.

Rossiya imperiyasining dastlabki bosqinchilik yurishini polkovnik M. CHernyayev va polkovnik Verevkinlar 1864 yil may oyida Qo'qon xonligiga qarshi boshlaydilar. SHiddatli janglar natijasida bosqinchilar Toshkentni egallaydilar. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuziladi va xarbiy gubernator yetib M. Chernyaev tayinlanadi va unga general-leytenant unvoni beriladi. Rossiya qo'shinlarining Toshkentni bosib olishi natijasida Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi O'rtasida xarbiy to'qnashuv muqarrar bo'lib qoldi.

Toshkent shaxri Turkiston xarbiy okrugi qo'mondonligi markaziga aylantirilib, galdagi bosqin Buxoro amirligining muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Jizzax bekligini bosib olishga qaratiladi.

1865- yil yanvarda general M. Chernyayev Chinozda katta xarbiy kuch to'playdi. Podpolkovnik Pistolcars boshchiligidagi 14 ta rota, 600 nafar qazaq va o'n olti tubdan iborat qo'shin bilan 21 yanvar kuni Sirdaryoning chap qirg'ogiga o'tib oladilar. M. CHernyayev boshchiligidagi qo'shin esa 30 yanvarda Sirdaryodan kemada suzib o'tadi va qo'shinlar safini kuchaytiradi.

M. CHernyayev qo'shinlari 1865 yilning fevralida Mirzacho'l bo'ylab Jizzaxga yo'l oldi. Qattiq qish tufayli o'tin, yem- xashak tanqisligidan og'ir axvolga tushib qoladi. Zuravonlikka odatlangan M. Chernyayev Jizzaxga o'z vakilini junatib, Jizzax begi Olloyorbekdan o'tin va yem-xashak berishni talab qiladi. Olloyorbekdan rad

javobini olgach, 7 fevralda podpolkovnik Pistolcars qumondonligida ikkita piyoda rota, 400 nafar kazakni ikki zambarak bilan Jizzaxni bosib olish uchun safarbar etiladi. Bosqinchilar shaxar himoyachilari tomonidan qattiq zarbaga uchraydi. M. CHernyayev qurshovda qolgan askarlarni qutqarish uchun yana ikkita qo'shimcha rota va ikki zambarakni yuborib, askarlarni o'z qo'shinlarining lageriga qaytarishga muvaffaq bo'ladi. Ikki o'rtada bo'lib o'tgan jangda bosqinchilardan sakkiz kishi o'ldiriladi, o'n tuqqiz kishi jarohatlanadi. Jizzax himoyachilaridan esa yuzdan ortiq kishi halok bo'ladi. M. CHernyayev qo'shinlari Jizzaxda mag'lubiyatga uchragach, urushni davom yettirishga imkoni bulmaganidan, 1865-yil 10 fevralda Sirdaryo tomon chekinishga majbur bo'ladi.

General M. CHernyayevning o'zboshimchalik bilan qilgan harbiy yurishi, Jizzaxni bosib ololmagani bosqinchilarga qimmatga tushdi. Mansabini suiste'mol qilgani uchun 1866 yil yanvar oyining oxirida rus podshosi Aleksandr II M. CHernyayevni lavozimidan olib tashlab, uning o'rniga Turkiston viloyati xarbiy gubernatori general D. T. Romanovskiyni bosh qumondon yetib tayinlaydi.⁶

Muarrix Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini Mangitiya" asarida yozilishicha, rus qo'shinlarining tobora ichkarilab kelishi amirlikning ilg'or fikrli ziyolilari orasida qattiq nafrat uyg'otadi. Buxoroda Madrasa talabalari junbishga kelib, bosqinchilarga karniy mukdddas urush ya'ni "gazovog" qilishni talab qilib chiqq boshlaydilar. Buxoro raisi eshon Baqixuja Sadr amirni "gazovotga" o'tlanishga da'vat etadi. Ilojsiz qolgan amir Abdulazim Somiyning aytishicha: "Beixtiyor bosqinchilarga qarshi yurishga qaror qildi. Muqaddas "gazovot" uchun payshanba kuni beadad qo'shin va behisob xayrixoxdar bilan uzangiga oyoq qo'ydi va Buxoroi sharifdan junab ketdi.

Buxoro amiri Muzaffar 60 ming kishilik qo'shin bilan Jizzax Sirdaryo tomon yurdi, biroq qo'shin yaxshi qurollanmagan, askarlarining aksariyat qismi xarbiy tayyorgarlikdan o'tmagan edi.

⁶ Xaydarov H. Jizzax tarixi. T., 2009, 78-bet.

Angliya va Turkiyadan yordam kutgan Amir Muzaffar ulardan, xatto uz xomiyligidagi xoni Xudoyorxoidan ham madad ololmadi. Qo'l ostidagi mavjud imkoniyatlardan foydalanib, barcha beklar va sardorlarning boshini qovushtirib, dushmanga sari birlashib xujum uyushtirishni xam uddalay olmadi.

Bosh qumondon general D. T. Romanovskiyning qushini Sirdaryo dashtiga chikqani xaqida xabar olingandan keyin Amir Muzaffarning xatti-xarakatlari kishining g'azabini oshiradi. Amir dushman kushinlarining qo'shini uchun 30 ming kishilik lashkarni Olloyor devonbegi qumondonligida jangovar marrani egallashga buyuradi va ular O'ratepa bilan Jizzaxni birlashtiruvchi karvon yo'lidagi tepalikda urnashadi. Amirning o'zi esa o'z ixtiyoridagi lashkarlar bilan aprel oyining oxirlarida yo'lga chiqib, O'ratepa yaqinidagi Rogun qishlog'ida tuxtaydi va Olloyor devonbegining xusni jamolda tengi yo'q qizini o'z xuzuriga keltirishga buyuradi. Amir mamlakat taqdiri uchun xayot-mamot jangi oldida xam uz xuzurini o'ylaydi va xaramiga keltirilgan 10 yoshli qiz, uz lashkarboshisining farzandi ekanligini ham unutib, ishratga beriladi. Olloyorbek devonbegining sarbozi Parchayuz Abduraxmondan yozib olingan esdalikda aytilishicha, o'sha tongda bu qizning suyilgan mO'rdasini topishgan. Ko'p utmay, sevimli qizining mudhish o'limi xaqidagi xabar jangovor marrani egallab turgan Olloyorbek devonbegiga yyetib kelgach, u o'z farzandi dog'iga qo'yib, bir necha kun chodirdan chiqmay yotadi. Olloyorbek devonbegiga qilingan zulm uning qarindoshlari Tuxtamishbek va Fozil dodxoxlarning xam amirga qarshi adovatini uyg'otadi. Qushni O'ratepada xam amirga qarshi norozilik kuchayadi. Amir Muzaffar o'z qo'shinidagi bunday xolatdan bexabar xolda O'ratepa bilan Jizzaxni birlashtiruvchi bir tepalikda o'z qarorgohini urnatadi.

1866 yil may oyi boshlarida general D.T. Romanovski y qo'shinlarining kichik avangard qismi Orqarga yaqinlashganda Olloyorbek devonbegi va uning qarindoshlari Tuxtamishbek va Fozil dodxoxlar jang qilmay Xovos tomon chekinadilar. Bu bilan ular begunox xalok etilgan qizchanning o'limi uchun amirdan

olgan qasosimiz, deb xisoblaydilar.⁷ SHaxsiy musibat yurt manfaatidan ustun kelib, 30 ming kishilik qo'shin jang maydonini dushmanga bushatib berdi.

Amir Muzaffar Sirdaryo buyidagi Otsjar (Irjar) degan joyga katta qo'shin va olomon bilan kelib o'rnashadi. Amir Muzaffarning Oqjarda to'plagan qo'shini, asosan, Buxoro, Samarqand, O'ratepa va boshqa joylardan to'plangan yuz ming kishilik askarlardan iborat bo'lib, 21 to'p bilan qurollangan edi. Vatan himoyachilarining soni ko'p bulgani bilan, Axmad Donishning yozishicha, amir qo'shinlari xarbiy mashqni yaxshi o'zlashtirmagan, urush maydonini ko'rmagan kishilardan iborat bo'lib, askarlar pilta miltiqdar bilan, ko'pchilik askarlar esa uchiga temir o'rnatilgan oddiy tayoq qurollar bilan qurollangan edi.

D.T. Romanovski qo'shinlari 1866 yil 8 mayda 14 piyoda rotasi va 500 kazak, 28 ko'p sakkiz rota qurilmasi bilan qurollanib, Oqjarda amir Muzaffar qo'shinlariga qarshi jang olib boradi. Jangda amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Oqjarda bo'lib utgan jangda Vatan himoyachilaridan 5 ming kishi halok bo'ladi, ko'pchiligi jaroxatlanadi. Rossiya qo'shinlari qumondonligi jang maydonida ko'plab qurol-yaroq kiyim-kechak va oziq-ovqatdan tashqari 6 zambarak, 670 pud poroh 22 ming dona patron, amirning chodiri va uning ichidagi qimmatli buyumlarni ulja qilib oladi. Amir Muzaffar Oqjardagi jangda mag'lubiyatga uchrab, uning qarorgohi o'rnashgan tepadan Jizzax tomon qochadi, shu bois keyinchalik bu tepa "Amir qochgan tepa" degan nomni oladi. Amir kechurun Jizzaxga yyetib keladi.

Oqjarda osonlikcha qozonilgan g'alaba general D.T. Romanovski qo'l kelib, rus qo'shinlari 17 mayda Xujand ostonalariga kelib marrani egallaydilar. Xujand himoyachilari bilan rus lashkarlari o'rtasida sakkiz kun davom etgan jangu-jadallarda xujandliklardan 5000 kishi shahid bo'ladi, dushman tomonidan esa 2500 kishi nobud bo'ladi.⁸

Rossiya qo'shinlari og'ir janglar bilan 1866 yil 8 may kuni Xujand shaxrini va

⁷ O'sha joyda, 79-bet.

⁸ XamidZiyojev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va zo'ravonliklariga qarshi kurash. T., 1998, 220-bet.

Nov qal'asini egallashga muvaffaq bo'ladilar. Xujandning bosib olinishi Rossiya xukumat doiralarida zo'r mamnuniyat bilan kutib olinib, xarbiy boshliqlarning unvonlari bir daraja ko'tariladi, soldatlar pul bilan taqdirlanadi. Urushni boshqargan general D.T.Romanovskiy esa uchinchi darajali "Svyatoy Georgiy" ordeni bilan taqdirlanadi.

Buxoro amiri Muzaffarxon Oqjarda bo'lib o'tgan jangda yengilganidan so'ng Jizzaxga mangit Olloyor devonbegini hokim yetib tayinlab, Jizzaxning Eski shaxridagi O'rda qal'asi devorlarini mustahkamlash va ta'mirlash xaqida unga buyruq beradi. Amirning buyrug'iga ko'ra, Jizzax shaxridagi O'rdani xarbiy jixatdan mustahkamlash ishlari amalga oshiriladi. Qal'a ikkinchi devor bilan urab olinadi. Muhammad Yoqubbek bosh qumondon yetib tayinlanib, shaxarni himoya qilish uchun 12 ming kishilik askar, 53 ta turli kalibrdagi zambarak va boshqa qurol-yarog', aslaxalar O'rda qal'asiga keltiriladi. Shaxar himoyachilari buzilgan xarbiy istexkomlarni va O'rda qal'asi devorlarini qayta tiklab, bosqinchilar xujumini qaytarish uchun xar tomonlama puxta tayyorgarlik ko'radilar.⁹ Zomindan Jiyaxo'ja tuqsaboy boshchiligidagi qo'shinlar ham Jizzax himoyasiga yetib keladilar.

O'ratepa va Jizzax uchun janglar. 1866 yil 23 sentyabrda polkovnik Voronsov-Dashkov O'ratepa qal'asi atrofini uzining xufiyachilari tomonidan o'rgangandan so'ng uning buyrug'iga muvofiq polkovnik Mantefeyl, polkovnik rotmeystr Baranov boshchiligidagi kush i n l ar shaxarni tuplardan ukda tutisha boshlaydi. 29—30 sentyabr kunlari shaxar janubiy tomondan yKKa tutilib, shaxar ichida yonginlar chiqdi. 1 oktyabrda rus qo'shinlari xujumga utadilar. Muarrir Avaz Muhammad Arrop Xukandiyning asarida esa xaqik,iy manzara tasvirlangan: „Axojii kuffor qal'ani egallash kdsdn ila yo'lga chiqdi. Musulmonlar bir qancha musulmon merganlarni qal'a atrofiga joylab qo'ygan edilar. Merganlar battol kofirlar yaqinlashishlari bilanoq ularning atroflarini o'rab olib, to'pu tufangni jo'shu xurujga keltirib, to'rt tomondan muqobatsiz otdilar. Kofirlarda tob- tokat qolmadi va ular

⁹ O'sha joyda. 223-bet.

katta zarar kurib, kattiq zarba eb qaytdilar. Kundan kunga jangu jadal kuchayib borardi. Yakshanba kechasi, jumodi-ul-oxir oyining 4-si, yo 5-sida kofirlar uchta darvozaga odamlarni tayinlab va o'rnashtirib, Mo'g' darvozasining chuqur xandaqini xas-xashak bilan to'ldirib, shunday keng joyni bir kechada tekis qilib, uzlariga yo'l ochib, tongni kutib turdilar. SHu payt shaxar aholisn g'ofil va o'z axlu xoliga mashg'ul bo'lib, olamdan bexabar uyquda yotar edilar. Bir oz vaqt o'tgach, saxar paytida, shaxar darvozalariga bir ming-ikki ming kishini qo'yib, o'ruslarning gubernatori va generali ko'p sonli tuda ila Mo'g' darvozasida xozir bo'ldi. To'satdan, o'zlari tekislagan yo'ldan utib, shaxar darvozasidan kirib tug' sanchig'ini Mo'g' qal'asiga o'rnatishga buyurdilar. Mug' qal'asi shu viloyat hokimining joyi edi. Kofirlarning qolgan lashkari shaxarning xar bir darvozasidan firqa-firqa, tup-tup, guruh-guruh bo'lib, qichqiriq, shovqin-suron ko'tarib kirdi va olamni to's-tupolonga ko'mib bozorga yaqinlashdilar. Axli islom musulmonlik hamiyatini dilga joylab, Saddi Iskandardek turib jang qildilar.

O'ratepa xokimi Abdug'afforbekning dushmanlar kelishi bilan qochishi shahar ximoyachilarini sarosimaga solib, ularning jangda mag'lub bo'lishiga sabab bo'ldi. Bo'lib o'tgan jangda vatan himoyachilaridan 2500 kishi xalok bo'lganligi, rus soldatlaridan 17 kishi o'lganligi va 217 kishi yarador bo'lganligi manbalarda qayd etiladi. Avaz Muxammad Attor Xuqandiy asarida esa jangda musulmonlardan 8 mingdan ko'proq kishi, bosqinchilardan besh mingdan ortiq kishi o'lganligi qayd etiladi. Bosqinchilar 37 tup, qurol-aslaxa va boshqa narsalarni o'lja qilib oladi.

Rossiya soldatlari O'ratepadan keyin Zomin qal'asini qo'lga kiritib olgach, qon tuqish, vayronachilik navbati Jizzax shaxriga keladi. Rus zobiti Z.Zinovev butun mintaqada Jizzax istehkomiga o'xshagan mustahkam qal'a bo'lmaganligini, qal'ada murakkab mudofaa ishlari amalga oshirilganligini yozadi. Jizzaxda Iskandarbek boshchiligida 10 ming kishilik qo'shin, 53 to'p bilan qurollangan himoyachilar bo'lib, to'p otishda moxir afg'on askarlari ham bor edi.

General D.T. Romanovskiy qumondonligidagi qo'shinlar yil 11 oktyabrda

shaharni qurshov ostiga oladilar. Mudofaachilar dushmanning dastlabki xujumini qaytarishadi. Iskandarbek boshchiligidagi afg'on xarbiylari mohirlik bilan jang qilib, himoyachilarga dalda berishadi. Dushman shaxarga boradigan suv yo'llarini berkitib, Samarqand va O'ratepa darvozalaridan xujum qilishga kirishadilar. 15 oktyabr kuni kechqurun kapitan Mixaylovskiy 4 piyoda rota, 6 to'p va 2 mortira bilan Samarqand darvozasi ostonasidan joy oladi. Polkovnik Voronsov-Dashkov qumondonligidagi 2 ta rota, 200 kazak va 4 To'n bilan shaxarning janubi- g'arbiy burchagidan joy oladi. Rus qo'shinlari va himoyachi qo'shinlar O'rtasida qattiq janglar bo'lib o'tadi.¹⁰

Jizzaxning qariyb 100 gektar yerini egallagan o'rda qal'asi mustaxkam istehkomga aylantirilgan edi. Qal'a 9— 10 metr baland devor bilan o'ralgan, atrofidagi chuqur xandaklar suv bilan to'ldirilgan, qal'a devorining eni 4— 5 metr bo'lib, otga qo'shilgan Qo'qon aravadagi zambarak bemalol devor ustida xarakatlana olardi. SHu bilan birga ko'pgina o'q otish tuynuklariga ega edi.

1865yil 15 oktyabrda bosh qumondon D. Romanovskiy va shtab boshlig'i V. Krijanovskiylar Jizzax shaxar hokimi Olloyorbekka shaxar jangsiz topshirish xaqida ultimatum yug'ilydi. Olloyorbek esa shaxar okrokollari, lashkarboshilari bilan maslaxatlashib, qumondonlik ultimatumiga Buxoro amiridan shaxarni topshirish xaqida ruxsatnoma olgunicha qadar, xujum qilmasligini so'rov javob xati yo'llaydi. Rus qumondonligi Olloyorbekning bu hiylasidan xabardor bo'lib, 15 oktyabr kuni shaxarni qamal qilish va uni qurol kuchi bilan bosib olish uchun shaxarning Samarqand, O'ratepa darvozalari atrofida turgan polkovnik Voronsov-Dashkov, polkovnik Grigorev qumondonligidagi qo'shinlarga Buxoro sarbozlarini tor-mor qilib, so'ngra Toshkent darvozasi atrofini butunlay egallab olish va zarba berish xaqida buyruq, beradi. 15-oktyabr kuni erta tongdan jang boshlanadi. Polkovnik Voronsov-Dashkov boshchiligidagi 2 rota, 200 kazak va 4 tup shaxarning janubi-g'arbiy tomoniga yuboriladi. 17 oktyabr kuni ertalab dushman soldatlari O'ratepa va

¹⁰ O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. T., 2000. 99-bet.

Samarqand darvozalari oldida devorni teshib, shaxarning O'rda qal'asiga xujum boshlaydilar. Bu jangda Grigorev, Voronsov-Dashkov va Pistolcars qumondonligidagi soldatlar faol qatnashadilar.

Rossiya qo'shinlari O'rda qal'asini kiritish uchun barcha kuchlarini safarbar qiladi. 17—18 oktyabr kunlari Buxoro sarbozlari bilan rus qo'shinlari o'rtasida shiddatli janglar bo'ldi. O'rda qal'a darvozalari ichki va tashqi tomondan tuproq bilan berkitib qo'yilishi dushman qo'shinlariga qo'l keladi. O'rda ichida qamalib qolgan Buxoro sarbozlarini istilochilar ayovsiz qirib tashlaydilar.

SHuni aytish joizki, O'parena qirini Jizzaxda to'kilgan qonlarga nisbatan birmuncha oz edi. O'ratepa qal'asida 4 ming kishi himoyada turgan bo'lsa, Jizzaxda 10 ming kishi himoyada turgan edi. O'ratepa qal'asida himoyachilarning iftchiligi qochishga ulgurgan bo'lsa, Jizzaxda darvozalar tuproq bilan to'qilgani tufayli kamdan kam kishi qocha olgan edi. Buxoro sarbozlari Toshkent darvozasidan tashqariga chiqib, jang qilmoqchi bo'lganlarida pistirmada turgan dushman askarlari miltiklardan o'q uzib, shahar himoyachilarini sirib tashlaydilar.

Rus muarrixlarining yozishicha, Toshkent darvozasida otliq askarlarning murdalaridan go'yo tog' hosil bo'lib, "Jizzaxda qon daryo kabi (krov lilos rekami) oqqan edi".

Istilochilarga qarshi jangda yuz bergan voqealar ularni xayrat va dahshatga solgan edi. Rossiya jurnalistlaridan biri "Russkiy vestnik" gazetasida "shahar himoyachilarining qaxramonligiga tan berish lozim. Xatto qal'adagi bir gurux. kishilar jangni davom ettirishga iloji qolmaganidan keyin porox omboriga kirishib, uzlarini portlatib yubordilar. Bunday qilish uchun yuksak ma'naviyat, katta jasorat va matonat kerak bo'lgan edi", deb yozgan edi.

General Romanovskiyning e'tirof etishicha, Jizzax mudofaachilaridan 6 ming kishi o'ldirilgan, 2 ming kishi asir olingan. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha esa, hayot - mamot jangida jizzaxliklardan 9000 jangchi, maxalliy tinch aholidan 1500 kishi xalok bo'lib, 1500 ga yaqin kishi asirga tushib, ularning 600 tasi og'ir yarador

bo'lgan edi. Buxoro amirining 18 lashkarboshisidan 16 nafari, jumladan, Olloyorbek devonbegi, Odil podshoh, Abdusattor , Juyan Tuqsoba, Xusanbiy va Iskandarxon singari jasur lashkarboshilar Jizzaxni himoya qilishda mardlarcha halok bo'ldilar.

Jizzax shaxri xonavayron qilinib, qo'lga olingach, general Krijanovskiyy Jizzax komendanti yetib tayinlanadi. Favkulodda holatlarning oldini olish uchun uning tasarrufida 10 ta rota askar, 10 ta to'p, 300 jangari kazak va boshqa qurol-yarog'lar.

Rossiya qo'shinlari Jizzaxni bosib olgach, polkovnik Abramov rahbarligidagi Orenburg o'qchi batalonining 2 ta rotasi, kazaklarning bir vzvodi, 100 askardan iborat, 4 ta To'p bilan qurollangan qo'shinlari 1867 yili 27 mayda Samarqandga qarab yurdilar. Bosqinchilar Ilonuttidan o'tib, Ko'kgumbaz, Yangiqurg'on qal'alariga xujum qilib, ularni, kultepaga aylantiradilar. Jizzaxni bosib olishda faol qatnashgan Orenburg general-gebernatori Krijanovskiyning Rossiya imperiyasi xarbiy vaziri D.N. Milyutinga 19 oktyabrda yozgan telegrammasida: "Buxoro amirining Sirdaryo vodiysidagi so'nggi tayanchi Jizzax besh kunlik qamaldan so'ng, 18 oktyabr kuni soat 12 da egallandi... 26 ta bayroq, 53 ta qurol va Ko'p boyliklar qo'lga tushirildi. Bizning yukrtishimiz, Xudoning irodasi bilan, 100 kishidan kamroq bo'lib, 4 zobitimiz yaralandi", deb yozilgan edi.

SHu o'rinda, qo'qon xoni Xudoyorxonning o'z xomiysi Buxoro amiriga nisbatan ish tutganini muarrixlar tarix sahifalariga yozib qo'yganligi diqqatga sazovordir. Xudoyorxon Xujand, O'ratepa va Jizzaxda minglab vatanparvarlar konini to'kkan general D. Romanovskiyyga tabrik telegrammasi yo'llab podsho bilan dustlikni saqlab, turli baxrpalar bilan qo'qondan chiqmadim va o'z xududlarimni saqlash uchun 35 ming kishilik qo'shinni to'plab, SHaytonmuzgarda turdim. SHundan so'ng, Xo'jandda turgan amir Muzaffar o'z qo'shini va xarbiy boshliqlarini olib, shaxarni mutlaqo bo'sh qoldirganini eshitdim. Agar men Ok, podsho bilan dustlikni istamaganimda, qo'shinim bilan SHaytonmuzgarga kaytmasdan Xujandga kirar edim. Olloh yordamida Siz Xujandni zabt etdingiz. Buni eshitib ilgarigi dustlikni mustahkamlash uchun Sizni g'alaba bilan tabriklayman!" deb yozgan edi. Birok

nodon Xudoyorxon hali ham „Ok podsho bilan do'stlik“ yaqin kelajakda o'lkada milliy davlatchilikni ham, uning sulolasini ham yer bilan yakson qilib tashlashini, o'lka mustamlakaga aylantirilayotganini mutlaqo tushunib yetmagan edi.¹¹

Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. Rossiya xukumati yangidan bosib olingan yerlarni boshqarish va bu xarakatni yanada davom ettirishni muvofiqlashtirish maqsadida 1867 yil 11 iyo'lda Turkiston general-gubernatorligini ta'sis etdi va unga rus imperatori Aleksandr II bilan yaqin aloqada bo'lgan general Kaufman general-gubernator etib tayinlanadi va unga mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish va boshqa vakolatlar beriladi.

Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman tez orada Samarqand va Kattaqo'rg'onni bosib oladi, Buxoro amiri qo'shinlarini tor-mor egadi. Keyin Xiva xonligi va Qo'qon xonligi qo'shinlarini tor-mor etib, katta xududlarni bosib oladi. Buxoro va Xiva xonlari Rossiya imperiyasi vassallariga aylantiriladi, Kaspiyorti yerlari ham bosib olinadi. Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi.

1867 yilda tasdikdangan „Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida vaqtli Nizom“ga muvofiq Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan viloyatlarga, viloyat uezdlarga, uezdlar o'chastkalarga bo'linib idora qilinadi. Viloyatlarga general, uezdlarga polkovnik, o'chastkalarga kapitan darajasidagi zobitlar boshqaruvchi qilib tayinlanadi. Bosqinchilik yurishlari natijasida Turkiston general-gubernatorligida besh viloyat: Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlari tashkil etiladi. Samarqand viloyatida Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax uezdlari tashkil qilinadi.

Jizzax uezdi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Samarqand viloyatining uezdlaridan biri hisoblanib, 20 ta volostdan iborat edi. Uezd shimoldan Sirdaryo, sharqdan Dashkat dovoni, janubi-g'arbdan Qorachatog', g'arbdan

¹¹ Avaz Muxammad Attor Xo'qandiy. Tarix Jaxonnomayi. 133-bet.

Qizilqum cho'li bilan chegaralangan edi. O'sha davrda Jizzax uezdining maydoni 43420 kvadrat verst (verst—1,06 km), aholisi 222683 kishini tashkil qilgan edi.

Qulay geografik xududida joylashgan Jizzax shaxri Turkiston general-gubernatorligining buyrug'i bilan Jizzax uzdining ma'muriy markazi etib belgilandi. O'rta Osiyo va Qozog'iston shaxarlarida bo'lganidek, XIX asrda Jizzaxda ham savdo munosabatlari va xunarmandchilik biroz rivojlanishiga qaramay, mehnatkash aholining axoli nochor edi. Jizzax shaxri Jizzax uzdining ma'muriy markaziga aylantirilishi munosabati bilan shaxar yangi va eski shaxarga bo'linib idora qilindi. Maxalliy axoli yangi shaxar deb belgilangan xududdan ko'chiriladi, yangi shaharda rusiyzabon xarbiylar, zobitlar, savdogarlar, rus amaldorlari istiqomat qiladigan yevropacha uy-joylar, madaniy-maishiy binolar quriladi. Yangi shaxarda Jizzax uzd ma'muriy binosi, nasroniy — pravoslav cherkovi, rusiyzabon bolalar o'qiydigan gimnaziya, uzd Maxka- masi binosi, hozirgi “Ko'k bozor” xududida ham rus amaldorlari uchun bir qancha turar-joy binolari, xarbiy garnizon uchun kazarma (qizil kazarma), maxbuslarni qamash uchun turma binosi qurilib ishga tushiriladi. Yangi shaxardagi ko'chalar elektr energiya bo'lmaganligi uchun kechalari xar yerlarda o'rnatilgan fonarlar yordamida yoritilar edi.

Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman juda katta huquqlarga ega bo'lib, oddiy xalq orasida “yarim podsho” deb atalib, u bir vaqtning o'zida o'lka bosh Hokimi xarbiy okrug qumondoni, bosh prokuror va bosh mirshab vazifalarini bajargan. SHuningdek, u xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borish, soliq tizimini belgilash, kishilarga Rossiya fuqoroligini berish, maxalliy aholi ustidan chiqarilgan turli xil sud xukmlarini ijro etishga ruxsat berishdek cheklanmagan huquqlarga ega edi. “Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqidagi vaktli Nizom” qonuni chor ma'muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi sezila boshlagach, K.F. Kaufman Rossiya imperatoriga Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi Nizom loyixasini taqdim

etadi. Yangi Nizom 1886 yil 12 iyunda imperator Aleksandr III tomonidan tasdiqlanadi. Nizomning asosiy g'oyasiga ko'ra, Turkistonda o'lka boshqaruvi yanada mustahkamlanib, o'lka yerlari avvalgidek harbiy vazirga bo'ysundirilishi ko'zda tutilgan edi.

XIX asrning 90 yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Fargona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar esa uezdlarga, volost va oqsoqolliklarga bo'linib boshqariladigan bo'ldi. Turkistonning barcha viloyatlarida xarbiy gubernatorlik boshqarmalari ta'sis etilib, viloyat xarbiy gubernatorlari general darajasidagi xarbiy ofitserlardan bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyatlar tarkibidagi uezd boshlig'i Rossiya armiyasining yuqori lavozimlardagi (polkovnik darajasidagi) zobitlaridan iborat bo'lib, viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanar va faoliyat kursatardi.

Uezd tarkibiga kiruvchi o'chastkalarini boshqarishga shtab kapitan unvoniga ega bo'lgan zobitlar tayinlanar edi.

Jizzax uezdi boshlig'i — pristavi lavozimiga polkovnik V.N. Ryabushkin Samarqand viloyati xarbiy gubernatori tomonidan tayinlanadi. V. N. Ryabushkin boshqa uezd boshliqlari kabi Jizzax uezdining ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan edi. U odamlarga jarima solish, 7 kungacha hibsdan saqlash xuquqiga ega bo'lgan. SHuning uchun uezd boshliqlari "Xokim to'ra" deb ham atalgan.

Jizzax uezdi Jizzax shaxri va bir necha o'chastkalarga bo'linib boshqarilgan. Masalan, Zomin o'chastkasiga kapitan Glinitskiy, Bog'don o'chastkasiga kapitan Borilla tayinlangan. O'chastkalar volostlarga bo'lingan. Masalan, Bog'don o'chastkasi Bog'don, Sintob, Qoratosh, Forish kabi volost (bulis)larga, bulislar esa oqsoqolli yutarga bo'lingan. Xar bir o'chastka (tuman) uezd (tuman) o'z tarkibidagi shaxar va qishloqlari bilan uezd boshlig'i (pristavi)ga bo'yso'ngan. Uezd boshliqlariga maxalliy axolidan istalgan odamga jarima solish va 3 kungacha

saqlash xuquqi berilgan edi.¹²

Jizzax uezdi boshqaruvi. Turkistonning boshqa joylarida bo'lgani kabi maxalliy aholiga nisbatan zo'ravonlik, adolatsizlik, qalloblik, poraxurlik kabi illatlar kundalik xayotning odat turiga kirib qolgandi. Shaxar hokimligiga, volost boshlig'i (mingboshi) va qishloq oqsoqollari (yuzboshi, ellikboshi) lavozimlariga "saylov" usuli joriy qilingan edi. Turkistonning boshqa yerlarida bo'lgani kabi Jizzax uezdida ham "saylov"lar nomigagina o'tkazilib, faqat badavlat kishilar volost boshlig'i, (mingboshi), qishloq oqsoqoli (yuzboshi va ellikboshi) lavozimiga saylanar edilar. Masalan, 1887 yili o'tkazilgan saylovda O'zbek, Yangiqurg'on, Zomin, volostlari boshliqlari lavozimiga katta mol-mulkka ega bo'lgan Eshbek Turotboyev, Toshtemir Muhammadiyurov, Yo'ldosh Qarshiboyev, Xasan Tog'aymurodovlar saylangan edilar.

Maxalliy aholining shikoyat-arizalari, fuqarolik va jinoyat ishlarini shariat qonunlari asosida ko'rib chiqish uchun Qozixonalar ko'rib, mulkdor kishilardan kozilar saylangan. Qazilar ham mahalliy aholini tutqunlikda tutib turishda Rossiya xukumatiga xizmat qilishga majbur edi. Jizzax shaxrida G'iyos sufi Maxsumov, Muxammad Yusupov, Myso qori Muhammadiyurov va boshqa

qozilar xukumatga sadoqatli mehnatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlangan edilar.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi o'lkani ruslashtirish va iqtisodiy qaramlikni yuzaga keltiriilga xizmat qildi. 1886 yilgi "Nizom"da rus aholisini Turkistonga ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish siyosati qonunlashtirib olindi. Jizzax shaxri va uning atrofidagi eng yaxshi sug'oriladigan yerlar ko'chirilib keltirilgan Rossiya aholisiga mansub kishilarga zobit, savdogarlarga mulk qilib beriladi. Bu yerda istiqomat qilgan mahalliy aholi esa majburan ko'chirilib yuboriladi.

Rossiyadan ko'pgina kishilar ma'muriyat ruxsatisiz O'lkaga ko'chib kela

¹² O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. T., 2000. 334-bet.

boshladilar. 1875 — 1890 yillar mobaynida 1300 oila ko'chib kelib, 19 ta rus qishloqdari tashkil etilgan bo'lsa, 1906 — 1913 yillar mobaynida Turkistonda va Jizzaxda 116 ta rus qo'rg'oni barpo etildi.

Jizzax shaxar xududidagi eng yaxshi sug'oriladigan yerlar, xozirgi Baxmal va G'allaorol tumanlari tog'oldi xududlaridagi unumdor yerlar ko'chmanchilarga ajratib berilib, qurol-yarog' bilan ta'minlandi. Ular ma'muriyat uchun zaxira qo'shin bo'lib, xarbiy ma'muriyatning birinchi chaqiruv-xabarini olishlari bilan oktayinlangan joyga darov yetib kelishga majbur edilar. Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi. Ularning joylashishi, dexqonchilik qilishlari uchun ko'p miqdorda mablag' ajratildi, o'zlarini o'nlab olgunga qadar bepul oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlab turildi.

Mirzacho'lda yangi tashkil topgan rus qishlog'i axolisi maxalliy aholiga nisbatan ancha ko'p ekin maydonlariga ega bo'ldi. Ma'lum davrgacha ular soliqdan ozod etildi, natijada qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlar Rossiya imperiyasi ma'murlari uchun O'rta Osiyoga yanada ko'proq axolini ko'chirib keltirish Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni xal etishning birdan bir yo'li edi. Turkistonda ro'siyzabon aholining ko'payishi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo'ldi. Ular ayni paytda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo'lgan xarakatlarini bostirib turishga xizmat qildi.

1.3 Jizzax Rossiya imperiyasi mustaqilchilik siyosat davrida

Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida Jizzaxga rus tabobatchiligi kirib keldi. Xususan, shaxarda xarbiy qismlarning ko'payishi, zobig va askarlar sonining o'sishi bilan 1870 yilda Jizzax uezd boshqarmasi qaramog'ida rusiyzabon aholiga tibbiy xizmat kursatadigan birinchi tibbiy punkt ochildi. Bu muzofotdagi yagona tibbiy shifoxona bo'lib, unga o'rta malakali feldsher G. M. Fomin mudirlik qilardi. Shifokorlar, asosan, uezd qoshidagi xarbiy bulinmalarga va uezd xokimi xizmatchilariga xizmat ko'rsatardi.

Ammo bu punktda maxalliy aholiga tibbiy xizmat kursatish cheklangan bo'lib, Rossiya tomonidan tibbiyot maskanlari ko'rishga yetarli mablag' ajratilmas edi. Ba'zi xollardagina uezd boshqarmasida xizmat qilayotgan amaldorlarning oila a'zolariga pullik xizmat ko'rsatilardi. Tibbiyot xizmatidan, asosan, erkaklar foydalanib, ayollar tibbiy yordamsiz. Jizzax shaxrida 1900 yili Rossiya amaldorlarining oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun 4 o'rinli shifoxona ochilib, shifokor I.N. Sametskiy uch nafar hamshira bilan faoliyat ko'rsatadi.

Og'ir mehnat, tibbiy xizmatning nobopligi oqibatida Jizzax shaxrida va uezdida kichima, kal, rishta va zaxm kasalliklari keng tarqalgandi. Chechak, vabo, o'lat va boshqa yuqumli kasalliklar yuzlab kishilarning yostig'ini quritardi. Umuman, XIX asrning 80—90 yillarida Jizzaxda chechak kasalligining keng tarqalishi, shu kasallik bilan og'ir bemorlarning juda nobud bo'lishiga olib kelardi. Kasallikning oldini olishning birdan bir yo'li emlash edi. Biroq maxalliy xalqning salomatligi xech kimni qiziqtirmaganligi sababli ana shu oddiy ishga ham e'tibor berilmasdi.

O'lka axolisi boshiga tez-tez falokat keltirib turgan dardlardan yana biri bezgak bo'lib, bu kasallik Jizzaxda tez-tez takrorlanib turar edi. 1892 yilda Jizzaxning Eski shaxar qismida boshlangan bezgak xuruji enidemiya qarsi kurash olib borilmadi. Natijada u Ravot, Sangzor, Forish, Usmat singari qishloqlarga ham tarqalib, ko'plab aholining o'limiga sabab bo'ldi. O'sha yili Turkiston general-

gubernatorligi bezgakka qarshi kurashuvchi maxsus komissiya tuzgan edi. Biroq uning xulosalaridan mahalliy xalq baxramand emas edi.

1893 yil 29 noyabrda Samarqand viloyat xarbiy gubernatori tomonidan Turkiston general-gubernatorligi nomiga yozilgan iltimosnomada Jizzax uezdi va Bog'don qishlog'ida shifoxonalar ochishga ruxsat berish so'ralgan edi. Bu murojaatnomaga javoban Jizzax shaxrida 15 o'rinli shifoxona ochishiga ruxsat beriladi. SHifoxonada 10 o'rin harbiylar va rus fuqarolari uchun, 5 o'rin esa maxalliy aholiga muljallangan edi. 3 nafar o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi A. Kleystorina (akusher), V.Volter, P.Sirov (feldsherlar) bemorlarga xizmat ko'rsatgan. Tabiiyki, mazkur shifoxona ham turli yuqumli kasalliklar epidemiyasi keng avj olgan bir davrda ko'psonli Jizzax uezdi axolisi talablarini qondira olmas edi.¹³

Ko'p o'tmay shifoxonaning umumiy xizmatchilari soni 5 kishiga yetdi. 3 nafar feldsher, akusher va dorishunos shifoxonada faoliyat yuritishdi.

Mustamlakachilikning dastlabki yillarida xukumat ma'muriyati Jizzax shahrining madaniy xayoti, xalqning urf-odatlari, xalq ta'limi an'alariga aralashmay, uni atroflicha o'rganish bilan cheklandi. Jizzax muzofotida xalq ta'limi rivojlanganligi, axolining ilm-fanni o'rganishga qiziqishi kuchli bo'lganligi, masjid va maktablarda Buxoro madrasalarida ta'lim olgan mudarrislar talabalar savodini chiqarish uchun diniy ta'lim bilan bir qatorda, adabiyot, riyoziyot, tarix va geografiya fanlaridan saboq berishganligi tarixdan bizga ma'lum. Jizzax shaxrining "Sovungarlik", "Jizzaxlik", "Qassoblik", "O'ratepa", "Toshloq" maxallalarida 1880—1888 yillarda tashkil qilingan 20 ga yaqin eski maktablarda, masjidlarda maxalliy aholi bolalari boshlang'ich ta'lim olgandan keyin, savdo-sotiq, xunarmandchilik, xattotlik kasblarini o'rganib, Mexnat qilganlar. Jizzaxning o'ziga to'q oilalarning bolalari esa Samarqand, Buxoro madrasalarida o'qishni davom ettirganlar. Eski maktablarda Jizzax shaxrining "Sovungarlik" mahallasida Ochil qori, Burxon qori, Egamberdi domla, Mulla Toshpulat domla, "O'ratepalik"

¹³ Xaydarov H. Jizzax tarixi. T., 2009y. 90-bet.

maxallasida Mirzo Sodiq Ziyo qorilar o'z zamonasining ko'zga ko'ringan maktabdor domlari sifatida yoshlarga musulmonchilik xuquqlari, shariat qonunchiligi, islom dinidan ta'lim berishgan.

Jizzax shaxridagi O'rda qal'asining shimoli-sharqiy mavzesida, "Toshkentlik", "Jizzaxlik" maxallalarida Sadriddin Maxsum, Muhammad qori, "Qalandarxona" maxallasida Mulla Sobir domla, Mulla Xasan singari ziyolilar tomonidan ochilgan jadid yangi usul maktablarida o'quvchilarga diniy bilimlar bilan bir qatorda, dunyoviy fanlardan ham mashg'ulotlar o'tilgan, darslar o'rtasida tanaffuslar tashkil qilinib, dunyo xaritalari, globus va boshqa ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish yo'lga quyilgan. Yangi usul maktablarida islom dinini o'qitish bilan bir qatorda, dunyoviy ilmiy bilimlarni urgatishga ham e'tibor berilgan. Jizzaxlik keksalar Nazirtosh Xazratqul qizining nomini Mexnatkashlarning farzanddariga bilim va ma'rifat tarqatgan mutabar ayol sifatida xurmat bilan eslashadi. Bu ziyoli ayol Jizzaxda ilm va san'atni sevgan inson edi. Jizzax shaxrida Nazirtosh Xazratqul qizi boshlagan qutlug' ishni uning shogirdlaridan biri Risolag buvi davom ettiradi. U jizzaxlik yoshlarga xayotiy bilim berishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Respublika ahamiyatiga molik nafaqaxo'r, marxum Narziqul Yo'lchiboyevning ug'illari xonadoni arxivida saqlanayotgan "Nazirtosh, Risolatxon opalardan bir guruh yoshlar — Xolmat Karimov, Mamadali Abdurasulov, qizlardan Xolida Xudoyberdieva, Ulug'oy Sharipova kabilar ta'lim olgan. Shunisi qiziqki, biz u vaqtlar kunduzi Nazirtosh, Risolatxon, Ochildi qori, Jo'ra qorilardai bilim olsak, kechqurunlari yetim bolalar maktabiga qatnab ta'lim olardik", deb ta'kidlanadi.

Jizzax shahrida 1910 yilda dastlab yangi usul maktabini ochganlardan biri taratssiyarvar Mirziyo qori Mirabdulla o'g'li edi. U yangi usul maktabini dast avval Jizzaxning ot bozori yaqinidagi masjidida ochadi. Biroq o'qitishning bu usuli u erda ta'sib qilingach, uz uyida davom ettiradi. Mirziyo qori Samarqandda yangi usul maktabini ochgan Abdulqodir Shukuriy, Siddikiy, Azjiy va ayniqsa, Samarqand ilg'or vakillaridan biri shoir Vasfiy bilan yaqin aloqa bog'lab, ular yordami bilan

tilga oid kitob ham chop qilishga muvaffat bo'lgan edi. Bu kitob yangi usul maktablarida foydalanishda o'sha yillari qimmatli o'quv qo'llan-masi bo'lib xizmat qilgan.

Jizzax shahrining ma'muriy markazi O'rda ichkarisida bir qancha me'moriy qurilmalar bilan bir qatorda shayx Nuriddin hoji mablag'i xisobiga Qizil masjid va Oq masjidlar ham qurilgan edi. Bu ikki masjid noyob me'morchilik yodgorligi, sharq me'moriy madaniyati usullarini o'zida mujassam etgan. Oq masjid O'rda bog'i oldida, xozirgi tikuv fabrikasi o'rnida pishiq g'ishtdan ishlangan ganch bilan ishlov berilib, ganchkorlik usulida bezatilgan. Masjidning atrofi ayvon bilan o'rab olingan. Ustunlar va barcha yog'och qurilamalarning Oq rangi saqlanib, o'ymakorlikdan bezak berilgan.

Qizil masjid esa O'rdaning sharq tomonidagi xozirgi favvora o'rnida bo'lib, bu imorat ham pishiq g'ishtdan qurilgan, atrofi esa ayvon bilan aylantirilgan. Qizil masjid deyilishining sababi binoning bugun ko'rinishi to'q qizil rangdagi g'ishtdan bo'lgan. Bu masjid ham haykaltaroshlik va ganchkorlik san'ati namunasi sifatida O'rda qal'asiga keluvchilarning uziga tortib turgan. Xar ikkala masjidning tartaxi (kurinishi) bir bo'lib, fatsatgina ranglaridan farq qilar edi, xolos. Urtadagi bu ikki gishtlik masjid binolarining markazida siroatxona va namoz uqiladigan zal bo'lib, atrofi xujralardan iborat bo'lgan.¹⁴

Bu ikkala masjid faqatgina namoz o'qiladigan va yoshlarni o'qitishga xizmat qiladigan joy bo'lib qolmay, balki targ'ibot va tashkilot markazi ham xisoblangan. Masjid xujralarida ko'plab diniy va dunyoviy, xuquqiy adabiyotlar saqlangan.

Demak, bu masjidlar bizningcha o'sha davrlarda kutubxona va Qiroatxona vazifasini xam utagan.

Oq masjid va Qizil masjidlarda tashkil qilingan eski va yangi usul maktablaridagi mashg'ulotlarni Buxoro shaxridagi madrasalarda taxsil olgan Axmad Normuxammad o'g'li, Ziyo qori Abdulla o'g'li, Nuriddin xoji Ma'rufxuja o'g'li,

¹⁴ O'sha joyda. 92-bet.

Mirza qori Mirabdulla o'g'li, Sobir domlalar tomonidan olib borilishi bu masjidlar shuxratining oshishiga sabab bo'lgan. Yoshi ulug' kishilarning eslashlaricha, Oq masjid va Qizil masjidlarni barpo etishda Jizzax O'rdasining so'nggi beklari Mulla Ashurbek, Muqim qozilar amaliy va moddiy yordam ko'rsatganlar.¹⁵

Jizzax shahrida sovet Hokimiyati urnatilgach, har ikkala masjid yopib quyiladi. O'zbekistan xalq o'quvchisi Bosim Abduraxmonovning eslashicha, XX asrning 30-yillarida bir guruh jadidlar, shu jumladan, har ikkala masjid imomlari, mudarrisleri xibsga olinib, temiryo'l orqali qizil vagonlarda Samarqandga olib ketilayotganda Ilonutti darasida vagonlar izdan chiqib ketib, fojia yuz beradi. Fojia tufayli jizzaxlik islom ulamolaridan 30 ga yaqin kishi xayotdan ko'z yumdilar.

Sovetlar xukumati yillarida xar ikkala masjid nurab, vayronaga aylanadi. Oq masjidga o't tushib, yonib ketadi. So'ngra har ikkala masjid g'isht va yog'ochlaridan foydalanib, Eski shaxarda hammom qurilib, ishga tushiriladi.

Shayx Nuriddin xoji Ma'rufxo'jaev asli jizzaxlik bo'lib, taxmin qilishlaricha (1850 — 1916) shaxardagi "Toshkentlik" mahallasida tavallud topgan. U o'zining odamshavandaligi, bilimi, ma'rifatparvarligi bilan el-yurt e'tiborini qozongan insonlardan biri bo'lgan.

Padari buzrukvori Ma'rufxuja o'z zamonasining badavlat, islom dinining o'ta bilimdon kishilaridan bo'lib, Nuriddin xoji tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. Nuriddin xoji boshlangich ilmni o'z otasi Ma'rifxujadan oladi. Farzandining zexni o'tkirligi, ilmga tashnaligini sezgan ota Nuriddinni, Buxoro shaxridagi mashxur ma'rifatparvar mudarrislar taxsil berayotgan madrasalarning birida o'qishi uchun imkoniyat yaratadi. Aytishlaricha, Nuriddin Buxoro madrasasida qariyb 15 yil taxsil olib, Qur'oni Karimni, islom dini falsafasi, musulmonchilikning xuquqlari, shariat qonunchiligi va dunyoviy fanlardan ham puxta bilim oladi. Arab, fors tillarini qunt bilan o'rganadi.

Balog'at yoshiga to'lganda Buxoro madrasasini tugatib, o'zi tug'ilib o'sgan

¹⁵ Sharipov B., Pardayev A. Ma'rifat. Maskani Jizzax. 1987. 5-6-betlar.

Jizzaxga keladi, “Toshkentlik” maxallasidagi masjidida, eski maktablarda mudarrislik qilib, yoshlarga diniy ilmlardan taxsil beradi.

U Jizzaxning ko’zga ko’ringan ulamolari, yangi usul — jadid maktabdorlaridan Sovungarlik maxallasidagi Mulla Xusan domla, Ochil qori, mulla Egamberdi, mulla Toshpulat domla, o’ratepalik maxallasidan Mirzo Sodiq, Ziyo qori, Toshkentlik maxallasidan Muxammad qori, Sadridin Mahsum va Komil qorilar tomonidan tashkil qilingan jadid maktablarida yoshlarga saboq beradi.

Nuriddin Ma’rufxujayev bu maktablarda o’quvchilarga arabiy o’tish, yozish, ilmini urgatadi. Yoshlarga savod o’rgatish bilan birga ularni dunyoviy bilimlardan xam baxramand qiladi.

U o’zining odamoxunligi, kambag’alparvarligi, xushfe’lligi, islom dini ilmiga asoslangan muloxazalari bilan butun Jizzax axolini, yangi usul maktabdorlarining e’tiborini jalb qilib, yuzlab ilm toliblarini tarbiyalab, voyaga yetkazadi.

Nuriddin Ma’rufxujayev 50 yoshlarida musulmonchilikning muxim shartlaridan birini bajarish uchun — Makkayu Madinaga xaj safariga boradi. Bir necha yil Saudiya Arabistonidagi shaxarlar, Turkiya, Qora dengiz buylab sayoxat qiladi. Rossiyaning janubiy xududidagi Odessa, Sochi, Kislovodsk shaxarlari bilan tanishib, o’z ona yurti Jizzaxga eson-omon hoji bo’lib qaytib keladi. Xajdan qaytib kelgan Nuriddin xoji Fayzulla, Ubaydulla, Muxitdin, G’ulom (xujalar) ismli farzandlar ko’radi.¹⁶

1898 yilda Nuriddin Xoji o’zining shaxsiy mablag’i xisobiga gul me’mor-usta Axmad Yunus Samarqand uning bevosita boshchiligida Jizzaxning Eski shaxar mavzesida Madrasa qo’rilishini boshlab yuboradi. Madrasaning qo’rilish ishlari 1902 yili bitkazilib, ishga tushiriladi. Madrasaning qurilishini Mirzaraxim hoji o’zining qumonida pishirilgan g’ishtlari bilan ta’minlaydi. Jizzax axoli baholi qudrat mablag’ to’plab usta - mardikorlarga xaftalik oziq-ovqat bilan yordam ko’rsatishadi.

Madrasa qurilishida usta O’ktam, Xikmat bobo va boshqalar faol qatnashib,

¹⁶ O’sha joyda. 6-bet.

uning o'z vaqtida ishga tushirilishiga munosib qo'shganlar. Madrasa eshik va derazalari usta Olim bobo tomonidan tayyorlangan. Madrasada o'qish 1912 yilgacha, ya'ni podsholik xukumati buyrug'i bilan Madrasa yopib qo'yilguniga qadar davom etadi. Buxoro, Samarqand madrasalarida taxsil olgan ulamolar talabalarga islom shariati va qonunlariga oid boshlang'ich ta'lim beradilar. Keksa xalq ta'limi xodimi Yusuf Xolmatovning aytishicha, madrasada yillari jizzaxlik soliqlari, Sa'dulla xoji, xoji Yusupov, Murodxuja Mulatov, mulla Isoq Qurbonov, Mirza Said Rahimov, Abdusattor Mirzakarimov, Abduqodir Sangirov, Rashid Sodiqovlar taxsil olishgan. Ularga oliy toifali mudarrislar tasavvuf ilmidan, shariat (fikir) va tariqat hamda dunyoviy fanlardan ta'lim berganlar. Madrasada o'zbek qizlarini o'qitish va savodini chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda Jizzax shaxar kuchalaridan biri ma'rifat - parvar Nuriddin xoji nomi bilan atalmoqda. Jizzax shaxrida XIX asrning II yarmida va XX asr boshlarida maktab va madrasalar ta'limida ayrim ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Qozon shaxrida chop qilingan "Quroni Karim" va "xaftiyak"lar, Pokiston va Erondan turli shoirlarning tashabbusi bilan bitilgan tuplam devonlari keltirila boshlandi. Biroq ko'p o'tmay, Turkiston general-gubernatorligi xazinasidan Madrasa va maktablar uchun ajratiladigan mablag'lar tuxtatib qo'yildi.

Mustamlakachilar Turkiston aholisini yevropacha muhitda tarbiyalashga, o'lkada Yevropacha turmush tarzini o'rnatishga xarakat qildilar. 1880 yilda Turkistondagi maxalliy bolalarni rus bolalari bilan birgalikda o'qitib, o'lkadagi rus muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini uchun maxalliy millat bolalaridan tarjimonlar, ish yurituvchilar tayyorlash maqsadida rus-tuzem maktablari ochish masalasi ko'tariladi. Unga Rossiya xarbiy vaziri, general-adyutant graf, D. Milyutin, Maorif vaziri graf Tolstoylar rozilik berishadi. General Fon Kaufmanning izdoshi general-leytenant G. O. Rozenbax o'lkada rus-tuzem maktablarini ochish loyixasini ishlab chiqishga va uni amalga oshirishga bevosita boshchilik qiladi. Toshkent, Samarqand, Kattaqurg'on shaxarlarida 6 ta rus-tuzem maktablari ochiladi. 1883 yili Jizzaxning

eski shaxarida ham rus-tuzem maktabi ochilib, 15 nafar talaba o'qishga qabul qilinadi.

Bu rus-tuzim maktabi hozirda SHarof Rashidov nomli maktabning ilk negizi edi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1889 yilda maktabda 21 o'quvchi tahsil olgan. Maktab uchun bino bo'lmagani sababli o'qish Soatboyning mehmonxonasida olib borilgan. 1889 yilning noyabrida rus-tuzem maktabi uchun 4 xonali bino quriladi. Bu shaxardagi yagona oqlangan bino bo'lganligi uchun xalq "Oq uy" deb atay boshlagan. Bu davrda Jizzax shaxrida rus-tuzem maktabi, 11 ta eski maktabda jami 122 nafar bola o'qigan edi.

Rus-tuzem maktabiga Mixail SHalitov mudirlik qilib, rus tili va adabiyotidan dars bergan. Maktabda S.I.Ananov, N.D.Alekseyev, Buxoro madrasasini tamomlagan Mulla Ahmad Normuhammedov, Mirzo qori Mirabdulla O'g'li, Ismoil Muminov, Xotam Tursunov va boshqalar o'zbek tili adabiyoti, rus tili, tarix geografiya fanlaridan dars berganlar.

Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman musulmon maorif shoxobchalari mustamlakachilik tartiblari va siyosatiga zid ekanligini hisobga olib, musulmon o'quv yurtlari va diniy muassasalarini qaytadan ruyxatdan o'tkazish, o'qituvchilarni xam sinovdan o'tkazib, aloxida topshiriq beradi. Siyosiy jihatdan "zararli" deb xsoblangan madrasalar yopib qo'yiladi. General-gubernatorlik tomonidan musulmon maktablari va madrasalaridan tushgan shikoyatlarni e'tiborsiz qoldirish xaqida buyruq beriladi. Bu esa maxalliy madrasalar va maktablarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Jizzaxda ham chorizmning mustamlakachiligi davrida olib borilgan og'ir zulm ostida juda katta yuqotishlar bo'lishiga qaramay, mahalliy aholi o'zligini, milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini, urf-odatlarini va turmush tarzini saqlab

qolishni ta'minlashga muvaffaq bo'ldilar. Mustabid tuzum sharoitida ham Jizzax xalqining erkinlikka, taraqqiyotga yengilishi va istiqbolga bo'lgan xarakati so'nmadi. Jizzaxliklarning qalbiga teran o'rnashgan istiqbol va ozodlik uchun kurash tuyg'usi yanada kudratli kuchga aylana bordi.

Hunarmandchilik va savdo. XIX asrda Jizzax shahri Sangzor voxasining ma'muriy markazlaridan biriga aylanib, xunarmandchilik, savdo-sotiq birmuncha taraqqiy qiladi. Shahar axolisining kundalik turmush ehtiyoji xunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulot va tovarlar evaziga qondirilardi, aholining turmush tarzida kulollik, temirchilik, zargarlik, kunchilik, tuqimachilik xunarmandchiligi muxim mashg'ulot turi xisoblanar edi. Xunarmandchilik kasbi otadan bolaga o'tgan, yoshlar ustalar qo'lida kasb o'rganishgan. Jizzaxlik xunarmandlar tomonidan yasalgan uy-ruzg'or buyumlari va madaniy mollar O'ratepa bozorlarida xam raqobatga bardosh bergan.

XV— XIX asrlarda xunarmandchilikni rivojlantirishda kulolchilikning o'ziga xos o'rne bo'lgan. Kulolchilik xumdonlari O'rda qal'asi devorlari tashqarisidan o'rin olgan. Xumdonlarda kulollar tomonidan oddiy oyoq charxi yordamida soz tuproq loyidan yasalgan, sirlangan va sirlanmagan kosa- tovoqlar, piyola, ko'za, xum, xumcha, tuvak singari uy-ro'zg'or idishlari va turli-tuman bolalar o'yinchoqlari pishirilib tayyorlangan va bozorlarda sotilgan. Xumdonlarda to'rt tomoni teng (kvadrat) shakldagi g'ishtlar xam pishirilib, masjidlar, madrasalar, turar joy binolari qurilishida ishlatilgan.

“O'ratepalik”, “Oqqurg'onlik” maxallalaridagi xumdonlarda o'ta pishiq g'ishtlar tayyorlangan. Kulol Mirzo Qayum Xasanov, usta Muxammad Allayorovlarning xususiy xumdonlarida yiliga 50 — 100 ming donagacha g'isht pishirilgan.

Shaxarning “Jizzaxlik”, “O'ratepalik”, “Qalandarxona” guzarlarida esa metallga ishlov berish muxim o'rin tutgan. Temirchilik otadan bolaga meros bo'lib o'tgan. Temirchilik ustaxonalarida tayyorlangan asbob-uskunalar xunarmandchilikning turli soxalarini, quruvchilarni mexnat qurollari bilan, qishloq, xo'jaligi ishlariga doir

ketmon, o'roq, qaychi va chalg'ilar bilan ta'minlaganlar. Duradgorlarga boltapar, teshalar, arrapar va boshqa ish qurollari yasab berilgan.

Shaharda faoliyat ko'rsatayotgan temirchilar keng tarmoqli va tor ixtisosli soxalarga qarab uch guruxga bo'lingan. Birinchi guruxga mayda uy-ro'zg'or buyumlari —zanjirlari, taqalar, mixlar, qarmoqlar, arava o'qlari tayyorlovchilar, ikkinchi guruxga suvoqchi va g'isht teruvchilar, duradgorlar ishlatadigan metallardan yasalgan mexnat qurollari, chalg'i, uroq yasovchilar, uchinchi guruxga esa pichoq, qaychi va arra yasovchilar kirgan. "Sovungarlik" maxallasida axoli sovun tayyorlash bilan shug'ullangan, maxallada sovun pishiruvchilar tomonidan tayyorlangan sovun bilan sham Jizzax G'allaorol, Zomin, Forish va Baxmal volostlarining bozorlarida xaridorgir bo'lgan.

Shaharda hunarmandchilikning keng tarqalgan soxalaridan yana biri xarratchilik hisoblangan. Xarratlar tomonidan ip yigiradigan charh bolalar beshigi va belanchak, chilim va yotstilaganlar ishlab chiqarish Jizzaxlik maxallasi axolisi o'rtasida keng tarqalgan edi. Mahallada omoch uchun tish ishlab chiqish xam yo'lga qo'yilgan. Axmadxo'ja Eshonxo'jayevning kichik korxonasida omoch tishi ishlab chiqarilgan.

Shahar o'zining sandiqsozlari bilan ham mashxur bo'lgan. Sandiqsozlik xunarmandchiligi „O'ratepalik“ va „Toshkentlik“ mahallalarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shaharda va atrof qishloqlarda paxtani chigitdan tozalab, undan tayyorlangan toladan va jundan ip yigirish, gilam, shol, olachalar tikish, kigiz, namat bosish, choponduzlik, kashtachilik, do'ppichilik xam ommaviy hunarmandchilik turlariga aylangan. Hunarmandlar qo'y va echki terilaridan po'stin tayyorlashni xam yaxshi yo'lga qo'yishgan. Keksalarning hikoya qilishlariga qaraganda, shaxardagi "Kunchilik" maxallasida qoramol, ot, qo'y, echki terilaridan tayyorlangan etik va maxsilar, ayniqsa, bozorgir bo'lgan.

Bu buyumlar Samarqand, O'ratepa, Qo'qon bozorlarida ham sotilgan. Keyinchalik Turkistonda yetishtirilib Rossiyaga olib ketilgan paxtadan tayyorlangan

ko'plab to'qimachilik maxsulotlari va boshqa mollarning Jizzax bozorlariga keltirila boshlaganligi mahalliy to'quvchi xunarmandlarni kasodga uchratib, ko'plarining xonavayron bo'lishiga olib keladi.

Jizzax shahrining O'rda qal'asi, atrofdagi "Oqqo'rg'onlik" "Jizzaxlik", "Sovungarlik, Toshkentlik", "Zargarlik" va boshqa maxallalaridagi bozorlarga qo'shni Turkiya, Afgoniston, Eron, Pokiston va boshqa xorijiy mamlakatlarning tijoratchilari to'qimachilik mahsulotlari, jun va gazlama, kiyimlar olib kelib sotishgan hamda mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan turli xil ip buyumlari, Ustrushona nefriti, jun, paxta tolasidan tayyorlangan buyumlarni, zebu-ziynat, zargarlik buyumlarini, quruq mevalarni xarid qilishgan.

1899- yili Kavkazorgi temiryo'l izlarining Jizzaxga kelib tutashganligi munosabati bilan Jizzaxning Xayrobod qo'rg'onida joylashgan bozor XIX asr oxirlarida Alovxon Eshonning chorbog'iga ko'chiriladi. Bozor xududida kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan savdo qiladigan savdo rastalari, dukonlar, oshxona uchun binolar qurilib, bozorchilar va xaridorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bozor qurilish materiallari, yem-xashak va u o'tin sotiladigan bozorcha ham faoliyat ko'rsatgani edi.

Shaxar bozorlarida ma'lum boylikka, mol-mulkka ega bo'lgan kishilar ko'tara savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Qo'shni shaxarlardan kelgan savdo karvonlari Jizzax karvonsaroylarida "chakanafurush attorlar"ga mol sotishgan. Shaxar bozorlarida gilam, duppi, chopon va boshqa istemol mollari bilan savdo-sotiq qiladigan rastalar bo'lgan.

Taniqli yozuvchi Nazir Safarov o'zining "Navro'z" nomli tarixiy romanida shaxarda tayyor umumiy ovqatlanish maxsulotlari bilan Beshquvar, Eski shaxardagi bozorlarda savdo qilini ham yaxshi yo'lga qo'yilganini yozadi. Umumiy ovqatlanish maskanlari xo'randalarga qulay bo'lishi uchun oshxona, choyxonalar bozor atrofidan o'rin olgan. Shaxar novvoylari tomonidan tayyorlangan xilma-xil obi non,

chapchak non, patir nonlar iste'molchilarga manzur bo'lganini yozib qoldirgan.¹⁷

Shaxardagi "Beshquvur", „Qalandarxona“ guzarlarining choyxonalari xamisha xo'randalar bilan gavjum bo'lgan. CHoyxonalarda palov, shurva, guja oshi, kabob, manti, nuxat shurva, sutli osh tayyorlanib xo'randalarga sotilgan. Shaxarda novvot, nisholda, holva, kallatqand tayyorlangan bo'lsa, uning bir qismi Samarqanddan ham olib kelingan.

Jizzax bozorlarida xo'l mevalar — qovun-tarvuz, handalak, uzum, olma, nok mo'l bo'lgan, quritilgan mevalardan mayiz, turli meva turshaklari sotilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, markaziy shaxarlardagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda Turkistonda yetishtirilgan xomashyo bilan ta'minlab turish, yerosti va yerusti boyliklarini tashib ketish tadbirlarini amalga oshirdi. 1880—1886 yillarda Mixaylov kurfazidagi Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi shaxri)dan Marv, CHorjuygacha, ya'ni Amudaryogacha bo'lgan maso- fada Kaspiyorti temir yo'li qurilib, 1887 yili mazkur temir yo'l qoraqum saxrolaridan o'tkazilib, Samarqandga yetkazildi. Rossiya imperatori Nikolay II ning farmoyishi bilan 1895 yilda Samarqandni Jizzax Xovos, Xujand, Farg'ona vodiysi va Toshkent shaxri bilan tutashtiradigan temir yo'l qurilishiga kirishildi. Tez orada temir yo'l Jizzaxga yetib keldi va Jizzaxda temir yo'l stansiyasi barpo etildi. 1899 yilda Krasnovodsk—Toshkent—Farg'ona yo'nalishi bo'yicha poezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi. 1900—1906 yillarda Toshkent—Orenburg temir yo'li qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu yo'llar orqaly o'lkada yetishtirilgan dexqonchilik maxsulotlari va tabiiy boyliklarni ko'proq Rossiyaga tashib ketish imkoniyati yuzaga keldi. Jizzax uezdidagi temir yo'l bekatlariga Rossiya generallari Kuropatkin (Lalmikor), Milyutin (G'allaorol), Obruchevo (Dashtobod), Lomakin (Zarbdor) nomlari qo'yildi.

Temir yo'lq qurish azob-uqubatdan iborat bo'lib, asosiy ishlar qo'lda bajarilar

¹⁷ Safarov N. Navro'z. T., 1977, 95-bet.

edi. Ichimlik suvi, oziq-ovqat maxsulotlari yetishmas, ishchilarga to'lanadigan maosh nixoyatda kam edi. Buning ustiga temir yo'l qurilishida ishlovchilarning dam olishi tashkil etilmagan, tibbiy xizmat deyarli yo'lga qo'yilmagan edi. Bu esa ishchilarning noroziligini kuchayishiga, tez-tez ish tashlashlar yuzaga kelishiga, temir yo'l qurishdan bosh tortishga sabab bo'lardi. Bu gal temir yo'l qurilishida katta qiyinchiliklarning yuz berishiga olib kelardi. Jizzaxda temir yo'l qurilishida, asosan, qishloq, joylaridan kelgan O'zbek, tojik, turkman va boshqa maxalliy millat vakillari, askarlar, Turkiston qamoqxonalari yotgan maxbuslar ishlatiladi. Ayniqsa, IlonUtti darasidagi temir yo'l qurilishida qoya toshlarni qo'l kuchi yordamida kesish ishlari ancha qiyin kechgan edi. Ming-ming tonnalab tosh va tuproq uyumlari g'altak arava va zambil yordamida tashilar edi. Bu ishlarni amalga oshirishda, g'allaorollik, jizzaxlik O'ktam poezdchi, Mulla Korjov, Barot Polvon, Toyloq bobo singari temir yo'lchilar astoydil mexnat qilishadi.

O'rta Osiyoning paxta etishtirayotgan tumanlari kabi Jizzax uezdi ham temir yo'l orkali Rossiya markaziy shaxarlaridagi to'qimachilik korxonalariga paxta tolasi yetkazib bera boshladi. Bu esa o'lkada g'alla, poliz ekinlari maydonini qisqartirishga, paxta maydonlarini kengaytirib, paxta yakka xokimligining o'rnatilishiga olib keldi.

Temir yo'llarning qurilishi nafaqat Jizzax balki butun Turkistondagi shaxarlarning rivojlanishiga, o'sha yillari „Yangiqo'rg'on“, „Jizzax“ deb nomlangan temir yo'l bekatlarining tashkil topishi Jizzax axolisining, Turkistonning boshqa davlatlar, jumladan, Rossiya, Yevropa mamlakatlari bilan turli soxalardagi aloqalarini yanada o'sishiga olib keldi.

O'z navbatida temir yo'l qurilishi rossiyalik aholiga mansub kishilarning O'rta Osiyoga va xususan, Jizzaxga ko'chib kelishini jadallashtirdi, bu jarayonlar o'lkadan paxta, teri, jun, sanoat xomashyosi, mahsulotlarini tashib ketishga xizmat qildi.

Turkistonda Amerika g'uzasining iqlimlashtirilishi va uning sanoat talablariga mos kelishi puldor korchalonlarning Turkistonga kelib paxtachilik bilan

shug'ullanishiga, paxta tozalash zavodlari qurish xarakatining kuchayishiga olib keldi. 1888 — 1890 yillarda Farg'ona, Samarqand, Kattaqurg'on, Jizzax shaharlarida paxta tozalash korxonalari barpo etildi. Jizzax shaxridagi paxta tozalash zavodiga S. P. Kouzov, S. Kraftlar egalik qilishar edi. Zavodga injener L.N.Yugovich tomonidan ixtiro qilingan „jin“ mashinalarining o'rnatilishi paxtani chigitdan tozalashda ish xajmining kengayishiga olib keldi.

Jizzax uezdida „Amerika“ navli paxta ekilgan maydon 1884 yilda 372 desyatinani tashkil qilgan bo'lsa, 1895 yilda 142527 desyatinani tashkil qildi. Jizzax xususiy paxta tozalash korxonalarida 1894 yili maxalliy nav paxtadan 3227 pud, amerika navli paxtadan 9519 pud paxta tolasi Rossiya sanoat korxonalariga jo'natiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada kapitalistik munosabatlarning jadal rivojlanishi, tuqimachilik sanoatining gurkirab o'sishi Turkistonda paxta „yakka xokimligi“ni ta'minlashga keng yo'l ochib berdi. Metropoliyaning mustamlakachilikka asoslangan iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo manbalariga va Rossiya mollari sotiladigan bozor maydoniga aylantirish uchun hamma vositalarni ishga soldi. Turkiston tabiiy boyliklarini tinimsiz tashib ketish rejasining amalga oshishidan dvoryan pomeschiklar sinfidan tashqari, tobora kuchga to'lib borayotgan Rossiya burjuaziya tabaqasi, uning to'qimachilik sanoati g'oyat manfaatdor edi.

Rossiya markazidan mo'may foyda ko'rish ilinjida amaldorlar, sanoatchilar, bankirlar yopirilib kela boshladilar. Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida 1867 — 1900 yillarda qishloq xujaligi xom ashyosi, shu jumladan, paxtani qayta ishlaydigan 170 ta korxonalar ochilgan bo'lsa, 10 yil davomida (1900— 1910) yana 220 ta, keyingi to'rt yilda (1910—1914) 180 ta korxonalar ishga tushirildi.

Jizzax uezdida 1894 yili savdogar Z.P. Kouzov shaxarning Toshloq mavzesida O'rta Osiyo sanoat shirkatining ruxsati bilan paxtani qayta ishlaydigan kichik paxta

tozalash korxonasini quradi. Zavodga o'rnatilgan jin mashinalari yordamida to'qimachilik sanoati uchun qimmatli xomashyo — paxta tolasi, lint (momiq) ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Shaxarda sanoatchi kapitalist S. Kraft oilasiga qarashli paxta tozalash zavodi ham faoliyat ko'rsatib, dexqonlardan arzon-garovga sotib olgan paxtani chigitdan ajratib, Rossiya tuqimachilik korxonalariga yuborar va shu orqali mumay daromad olar edi.

Turkistonda 1867—1900 yillar mobaynida ishga tushirilgan 175 ta sanoat korxonasining ko'pchiligi paxta tozalash korxonasi bo'lib, yalpi sanoatning 80 foizi paxtani dastlabki qayta ishlaydigan korxonalariga to'g'ri kelar edi. Turkiston sanoatida paxta zavodlaridan so'ng chigitdan yog' ishlab chiqariladigan korxonalar asosiy o'rinni egalladi.

Paxtachilik soxasida bank kreditining o'ziga xos shakli — yer va undan olinadigan paxta hosiliga kredit — qarz berib turish tez rivojlana boshladi. Jizzax uezdida paxta, pilla, qorakul teri uchun kredit berish bordi. Bu tadbirlar mahalliy dexqonlarni ekspluatatsiya qilishni yanada kuchaytirdi.

Jizzax shaxrida Sibir savdo bankining O'rta Osiyo bo'limi ish olib borib, katta mablag'ni qo'lga kiritishga muvaffak bo'ladi. U sanoat korxonalarini tovarlarini sotish bilan birga paxtakorlarni kredit bilan ta'minlab, katta mo'may foyda olar edi.

Paxta sotib oladigan tuqimachilik kombinatlari va firmalarining Jizzaxda ish olib borayotgan Kraft va Kouzovlarga tegishli paxta tozalash zavodlari veksellariga 60—70 foiz edi. Dexqonlarga qarz qisqa muddatga berilar edi. Paxtafurushlar tomonidan bir botmon paxta uchun 85—100 tanga hisobida qarz to'lanardi. Xolbuki, bozorda bir botmon paxtaning narxi 145—150 tanga edi.

Banklarning krediti ko'p pog'onali bo'lib, u paxta zavodi egalariga, to'qimachilik korxonalariga, paxta yetkazib beradigan firmalarga berilar edi. Firma va zavodlarning egalari ssudalarni paxta sotib olish bilan shug'ullanadigan savdogarlarga, ular esa maxalliy millat vakillaridan chiqqan paxta furushlarga taqsimlashardi. Maxalliy paxtafurushlar esa garovga paxta sotib olib, boyishar edi.

Jizzaxda Rossiya mustakamlakachiligi yillarida shaxar sanoati yetarli rivojlanmagan bo'lib, 1892 yilda Jizzax shaxrida 95 ta moyjuvoz, 10 ta katta-kichik g'isht xumdonlari, 3 ta sovun pishiradigan, 13 ta kulolchilik, 1 ta ko'p zavodi, 31 ta etikduzlik, 20 ta temirchilik va zargarlik, 31 ta duradgorlik, 2 ta sham tayyorlaydigan, 20 ta alacha va shoyi tuqiydigan katta-kichik korxonalarda axoli kundalik extiyojini qondiradigan tovarlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi.

Jizzax aholisining asosiy qismi qishda xonalarni sandal yordamida qizdirib, mo'rili o'choqdan foydalanishgan. Bu davrda gaz, elektr, ko'mir rasm bulmagani uchun uylarni isitishning asosiy manbai o'tin bo'lgan.

Jizzax axolisi qisimdan o'z xovlisini toza, saranjom- sarishta saqlashga intilgan. Avlodlarimiz go'zallikka oshufta va moyil bo'lganligi bois, xar bir oila o'z xovlisini chiroyli qilib bezash, garchi oddiy bo'lsada qurimli qilishga xarakat qilgan. Uylarning devorlari bo'ylab tuiri burchakli yoki gumbaz shaklida bir necha taxmon, ular o'rtasida esa tokchalar qilingan. Ularga ko'rpa-to'shaklar, uy-ro'zg'or buyumlari joylashtirilgan. Chiroyli ko'rpacha, bolishlar sandiq ustiga taxlab qo'yilgan.

Umuman, Jizzax maxallalarida „o'z uying o'lan tushaging“ naqliga xamisha amal qilishib, uni obod va pokiza saqlashga xarakat qilishgan.

II-bob Jizzax qo'zg'oloni

2.1 Jizzax qo'zg'oloning boshlanishi va uning yengilish sabablari

Rossiya imperiyasining 1914 yilda boshlangan birinchi jaxon urushiga tortilishi va urushda yuz bergan muammo va qiyinchiliklar oqibatida imperator Nikolay II ning 1916 yil 25 iyunda imzolangan „Imperiyadagi ro's bo'lmagan erkak axolini xarakatdagi armiya rayonida mudofa inshootlari va xarbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa xar qanday ishlarga jalb qilishi tug'risida“gi farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda Turkiston xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan jami 250 ming, jumladan, Samarqand xududidan 88 ming, Sirdaryo xududidan 87 ming, Fargona xududidan 50 ming erkaklarni safarbar qilish ko'rsatilgan edi. Samarqand viloyati tarkibidagi Jizzax uezdidan 10531 erkakni front orqasidagi ishlarga mardikorlikka chaqiriladigan bo'ldi. SHu jumladan, Jizzax shaxridan 655 kishi, Zomin volosti bo'yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bog'don volosti bo'yicha 2311 kishi front orqasidagi ishlarga mardikorlikka safarbar etilishi mo'ljallangan edi. Podsho farmonining e'lon qilinishi va mardikorlikka olish bo'yicha tadbirlar mexnat kashlar ommasining qaxru g'azabi va nafratini kuchaytirib, ommaviy qo'zg'olonga aylanib ketishiga olib keldi. Daxshatli fojealar bilan kechgan qo'zg'olonlar butun Turkiston o'lkasida yuz berganligi ko'plab tarixiy manbalarda, shuningdek, Oybek, Abdulla Qaxxor va Nazir Safarov kabi taniqli adiblarning avtobiografik asarlarida ham haqqoniy ko'rsatilgan.

Jizzaxdagi qo'zg'olon davomida o'zining butun qalbu vujudini mexnatkash xalq, baxtiga baxshida etgan Nazirxuja Abdusalomov, Muxammad Raxim, Abduraxmon jevachi Abdujabborov, Ziyo qori Abdullayev, Mamasharif Xusainov, Komil qori Bobojon o'g'li, Muxiddin Xujayev va bosha haqiqiy xalq yetakchilari yetishib chiqdi.

Turkiston ziyolilari boshlagan jadidchilik xarakatining bir gurux peshkadam

vakillari ishtirokida o'tgan yig'inda Rossiya imperatori Nikolay II ning 1916 yil 25 iyundagi farmonini bekor qilishni talab qildilar, aks xolda butun o'lkada birdaniga isyon ko'tarish g'oyasini ilgari surdilar. „Yosh buxoroliklar“ rahbarlaridan Usmonxuja Pulatxo'ja o'g'li, „Yosh xivaliklar“ rahbari Paxlavon Niyoz xoji, Turkiston jadidlar xarakatining peshqadamlari — Maxmudxuja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Jizzaxdan Komil qori Bobojon O'g'li, qo'qondan Obidjon Maxmud O'g'li va boshqalarning ishtirokida Samarqandga o'tgan yig'inda mardikor olish tug'risidagi farmonga qarshi tadbirlar ishlab chiqildi. Komil qori Bobojon o'g'li Jizzaxga yetib kelgach, Nazirxuja Abdusalomov, Ziyo qori Abdullayev, Muxammadrahim Abduraximovlar bilan maslaxatlashib, Turkistonning boshqa viloyatlarida kutariladigan qo'zg'olon qatnashchilari bilan aloqa o'rnatish uchun Nazirxujani Toshkentga, Mulla Ibroham bilan Mulla Davronbekni Samarqandga, Muxammadrahimni Bog'donga yuboradilar. Jizzaxning boshqa volostlariga, ishonchli kishilar orqali xat junatiladi. Ular qo'zg'olonchilarni joylarda ko'rash olib borayotgan qasoskorlar bilan birlashib xarakat qilishga chaqiradilar. Biroq Turkiston general-gubernatorligi tomonidan ko'rilgan tadbirlar, zurovonlik tufayli butun o'lka kuzgolonchilari birlashib xarakat qila olmadilar, qo'zg'olon xolda, shaxar, uezd, volostlar miqyosida o'tdi.

Mardikorlikka ketadiganlarni ro'yxatga olish jarayonida shaxar va uezdlarda, jumladan, Jizzax uezdida amaldorlar mumay daromad olishga xarakat qilishib, boylarning bolalarini pul evaziga ruyxatga kiritishmagani, axolining ayanchli turmush xayoti qo'zg'olon kutarilishiga turtki bo'ldi. quzgolon 1916 yil 4 iyul kuni Xujandda, 9 iyul kuni Qo'qon uezdida, 11 iyul kuni Samarqand va Toshkentda, 13 iyul kuni Jizzax uezdida ommaviy tus oldi.

Jizzax shaxrida boshlangan qo'zg'olonga Nazirxuja Abdusalomov, Ziyo qori Abdullayev, Muhammad Xujayev, Komil qori Bobojonov, Muhammad Ashurov, Bordomda Abduraxuyun jevachi Abdujabborov, Sangzor volostida aka-uka To'raqul

va Eshonqul Turabekovlar, Zomin volostida Turdiboy Xudoynazarov, Karim Orziqulov kabi xalq yo'lboshchilari boshchilik qildilar. Zomin volostidagi Kirk, qishlog'ida Karim Orziqulov boshliq, olamon ellikboshilardan Norcha va Qulbeklarni o'ldirishadi. Qo'zg'olonchilarning Turdibek Xudoynazarov boshchiligidari 500 kishilik yana bir guruh Chukurtak, qishloq Mulla Mahkamboy, Mulla Ruziqulovni toshburon qilib o'ldirishadi. Zomin pristavi Sobelov qurolli qo'zg'olonni bostirish uchun soqchilar va tarjimoni bilan Yom volostiga kelib quzg'olon tashabbuschilaridan 7 kishini, shu jumladan, Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovni tushirib, soqchilar hamda Yom volosti boshqaruvchisi Mulla Fozilov bilan Zominga junaydi. Lekin ular yo'lda 800 kishilik quzg'olonchilar xujumiga duch keladi. Quzg'olonchilar qo'lga olingan Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovlarni ozod qiladilar, pristav Sobelov esa qochib kutulishga muvaffaq bo'ladi. Yom volostidagi singari quzg'olon xarakatlari yangi qo'rg'on, Zomin, Sangzor va boshqa volostlarda ham ruy berdi.

1916 yilgi milliy-ozodlik xarakatining eng kuchaygan nuqtasi 13 iyul kuni Jizzax qo'zg'oloni boshlanadi. 13 iyo'l kuni uezd polkovnik Rukin qassoblik masjidida bo'lgan yig'ilishda „mardikorlikka olish bekor qilindi“, deb xalqni aldamoqchi bo'ldi. Mustamlakachi va maxalliy ma'murlarning o'zaro til biriktirib xalq, ommasiga nisbatan zo'ravonlik, do'q-pupisa siyosati mehnatkashlarning nafratnadamatini yanada oshiradi. Qo'zg'olon jiddiy tus oladi. Mehnatkash xalq, zulm va zuravonlikka qarshi yoppasiga quzg'olon ko'tarib Eski shahar bozori atrofidagi shaxar Mirzayor Xudoyorxonovdan mardikorlikka olinuvchilar ruyxatini berishni talab qilishadi. Oqsoqolli kishilarni tinchitish o'rniga kurakda turmaydigan suzlar bilan xaqorat qiladi.¹⁸ “Oqqo'rg'on“ maxallasida istiqomat qiluvchi quzg'olonchi Abdunazar ismli kishi Mirzayorga tashlanib, uni yerga yiqitadi. Olomon unga tashlanib mushtlab o'ldiradi. Qo'zg'olonchilar maxkamadagi mardikorlikka olinadiganlar ruyxatini topib olib, yondirib tashlashadi va Beshquvurdagi uezd

¹⁸ Sodiqov H. Arafa. “Guliston”, 1976 yil. 7-son, 10-11-betlar.

Xokimi mahkamasiga yo'l olishadi.

Qaxr-g'azabga to'lgan qo'zg'olonchilar Toshloq, mavzusida otliq soqchilar bilan qurshab olingan o'z xokimi polkovnik P.I.Rukin, shtabs-kapitan P.D. Zotogolov, maxalliy mirshab Komil Jumanboev, soqchi askar Gritsenko, tilmoch Mirzaxamdani Zokirjonovlar guruxiga duch kelishadi, o'rtada ur-yiqit, otishma boshlanadi. Qo'zg'olonchilar ularni o'ldirishadi. To'qnashuvda ko'plab qo'zgonchilar xam xalok bo'ladilar. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Nazirxo'ja Abdusalomov boshchiligida, podpolkovnik Afanasev boshchiligidagi jazo otryadi bilan jangga kirishadi. Afanasev jazo otryadi qo'zgonni bostira olmay, o'zlarini mudofaa qilishga o'tadi. Qo'zgonchilar katta talafotlarga qaramay xujumni davom ettiradilar. Jizzax temir yo'l shoxbekatidagi neft zaxiralari yondiriladi, temir yo'l izlari buziladi, aloqa simlari uzib tashlanadi. Obruchev, Lomakino, Kuropatkino, Rostovsevo temir yo'l bekatlaridagi 6 ta temir yo'l ko'priklari buzib tashlanadi.

Jizzax shaxrida ko'tarilgan qo'zg'olon tez orada shaxar atrofidagi Bog'don, Zomin, Sangzor, Yangitsurgon, Yom, Ravot, Qaratosh, Usmat va boshqavolostlarga xam yoyiladi. Ayniqsa, Abduraxmon rejasi boshchiligidagi Bog'don volostida kelgindi, mustamlakachi va maxalliy amaldorlarning mustamlakachilik zulmiga qarshi bosh ko'targan Bog'donliklarning jasoratlari Vatan tarixida aloxida o'rin tutadi.

Abduraxmon rejachasibosqinchi mustamlakachilarga qarshifaqat barcha kuchlarni birlashtirib ko'rash olib borish orqali g'alabaga erishish mumkin deb xisoblaydi. Shu maqsadda u jizzaxlik jadidlar tomonidan qo'zg'olonni tashkil topish uchun yuborilgan Muxammadraxim Abduraximov bilan maslaxatlashib, axoli o'rtasida targ'ibot-tadviqot ishlarini uyushtiradi. Volostga qarashli islohotlarda targ'ibot ishlarini olib borish uchun Yanginshloq ukasi Bobobekni, Kulva podshoxiga Baxtiboyni, Ilotiqishlog'iga Joynok, Abduraximov, Ziyod Soriev va Jo'ra Abdugafforovni, Shakarboy Imomboevni, Nurak qishlog'iga Zulfikr Yuldoshevlarni safarbar qiladi. Abduraxmon rejasi Jizzax voxasida ko'tarilgan

barcha qo'zg'olonchi kuchlarni birlashtirish maqsadida Jizzax shaxriga Nazirxo'ja Abdusalomov xuzuriga ukasi Bobobek Abdujabborovni yuboradi. Bobobek Jizzaxdan qaytib kelgach, Abduraxmon rejasi Shotolibqishlog'idagi o'z uyida Muxammad Raxim, Mulla Davronbek va boshqa faollar to'planishib majlis o'tkazishadi. Majlisda qo'zg'olonni tashkiliy jixatdan tayyorlash, Jizzax qo'zg'oloniga amaliy yordam berish, istilochi qo'shinlarga birlashib kurashish va Turkiston o'lkasi mustaqilligini ta'minlash kabi masalalar muxokama qilinadi.

13-iyul kunining ikkinchi yarmida Jizzax qo'zg'oloni boshl angani xaqida xabar Bog'donga yetib kelgach, Bog'don volostida xam qo'zg'olon boshlanadi. Bog'donda boshlangan qo'zg'olon butun Forshi, Narvoy, Sintob va boshqaqishloqdarda xam qullab- quvvatlanadi. Bog'donda boshlangan qo'zg'olon ga Abduraxmon jevachining o'g'illari Mulla Dovil, Doston, Sorabek, ukasi Bobobek Abdujabborov, Yangiqishloqda Omon Ibragimov, Umar Tursunkulov, Ok bulokdan Mulla Kuliboy Jabborov, Safar otadan Avaz Iskandarov va boshqalar boshchilik qiladilar.¹⁹

Qo'zg'olonchilar Bog'don volosti boshlig'i — pristavi Borillani qo'lga tushirish rejasini tuzgan edilar, ammo pristavning ayg'oqchilar unga bu xabarni etkazishgach, u 14 iyul kuni Bovdondan chiqib kuchmanchi chorvadorlar xuzuridan panox topadi. 14 iyul kuni Abduraxmon jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar mustamlakachilarning Bog'don volosti maxkamasiga xujum qilib, 1950 nafar mardikorlikka olinuvchilar ruyxatini qo'lga tushirib, yondirib tashlaydilar. Maxkamadagi qurol-yaroglarni kulga kiritib, mirshablar xonasini ostin-ustun qilib, barcha buyumlarni sindirib tashlaydilar. Pristav alokachisi S. N. Sibirsevning, Jizzaxdan Bovdonga jazo otryadini chakirish tugrisidagi maxfiy xatini kulga tushiradilar. Qo'zg'olonchilar Sibirsevni Uldiradilar, maxkamaning boshqa xodimlari xibsga olinadi.

Sangzor, Bog'don, Zomin volostlaridan 3 mingdan Ko'ppoq qo'zg'olonchilar

¹⁹ Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachili davri. T., 2000y, 424-bet.

Jizzax tomon yul oladi. Podpolkovnik Afanasev qo'mondonlik qilgan jazo otryadi qo'zg'olonni bostira olmaydi. Turkiston general-gubernatorligi Jizzaxga kushimcha ravishda polkovnik Ivanov boshchiligida 13 rota askar, 3 rota qazak jangari otryadi, 3 rota sapyorlar, 6 ta to'pli batareya — xammasi bo'lib 2,5 ming kishilik jazo otryadini yuboradi. 1916 yil 21 iyulda Abduraxmon jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Jizzax tomon yuradi. Usha kuni Jizzaxning Faqat tomonidagi Qili nomli manzilgoxda Afanasev qo'shinlariga qarshi jangga kiradi va uni chekinishga majbur kiladi. Afanasev qo'shinlari engilish arafasida polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta xarbiy qo'shin yetib keladi. Ayovsiz jangda qo'zg'olonchilar yengiladi.

2.2 Qo'zg'olonchilarga nisbatan podsho Rossiyaning ma'murlarining qo'llagan jazo choralari

1916 –yil 21 iyulda yonida bo'lgan jangda qo'zg'olonchilar engilgach, jazo otryadi boshlig'i polkovnik Ivanovning

Bog'donda qo'zg'olonda katnashgan kishilardan olish, ularning mol-mulkini, yerlarini tortib olish xaqidagi taklifiga binoan Rossiya imperiyasi xukumui tomonidan davlat maslaxatchisi Papenguta raisligida maxsus komissiya tuziladi. Qo'zg'olonchilarga boshchilik kiilgan Nazirxuja, Muxammadraxim, Komil kori, Ziyo kori, Abduraxmon jevachi, Nuriddin xoji va boshqalarga kadrashli 1810 desyatina eng xosildor yerlar tortib olinib, rus amaldorlariga bo'lib beriladi. Mingdan ortik qo'zg'olonchi qamoqqa olinib, ularning ko'pi qatl etiladi. Kuzg'olonchilari ayovsiz jazolashdagi „qaxramonlik“lari evaziga polkovnik P. Ivanovga general unvoni beriladi va Farg'ona viloyati xarbiy gubernatori lavozimiga kutariladi.

1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni qurol kuchi bilan bostirilgach, barcha Jizzaxlik jadidlar kulga olinadi. S. Afanasev, P. Ivanov boshchiligidagi insoniylik qiyofasini yo'qotgan jazo otryadi tomonidan Yangiqishloq, ilono'tti, tutsoy, Yom, Nurak, Qoratosh, Anamuna, Safar ota, Marhum va boshqa o'nlab qishloq va ovullarga batamom o't qo'yib kulini ko'kka sovuradilar. Yuzlab kishilar qo'zg'olonga qatnashishi yoki katnashmaganligidan nazar qamoqqa olinib, suroksiz otib tashlanadi, osiladi, Sibirga surgun kilinadi. Bog'don Abduraxmon jevachi va uning safdoshlari Jizzaxning Kutirbulots mavzesida xarbiy dala sudining xukmi bilan osib o'ldiriladi. Jadidlar xarakatining raxnamonalaridan biri Komil korining farzandlari, nabiralari hozirgi paytda o'zlarining xalol mexnatlari bilan oga-bobolari ruxini shod etmokdalar. Boboning tuprich o'g'li Mamajon Komilov Sankt-Peterburgdagi moliya texnikumini, Toshkent xalq xo'jaligi insitutini tugatgach, Jizzax tumanidagi moliya bo'limida raxbarlik lavozimida mexnat qilib, xalq xurmatiga sazovor bo'ldi. Nabiralaridan To'lqin Mamajonov (marxum) tibbiyot fanlari doktori, professor,

Samarqand tibbiyot institutida kafedra mudiri, Baxrom Mamajonov fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, Jizzax davlat pedagogika instituta rektorining o'quv ishlari buyicha muovini, Olimjon Azimov tarix fanlari nomzodi, professor, uzoq yillar Samarqand shaxar ijro qo'mitasi raisi lavozimida mexnat qilgan. Kamoljon Azimov esa Jizzax tumanidagi Navoiy nomli jamoa xo'jaligiga raislik qilib, Mexnat qaxramoni unvoni bilan taqdirlangan.

Jazo otryadi dastlab qo'zg'olon tashkilotchilarining ko'plarini qo'lga tushira olmadi. Chunki ular bir muddat Forishning Hypota tog'larida yashirinib yurdilar. Jazavaga tushgan rus amaldorlari qo'zg'olon tashkilotchilarining yaqinlari, boshiga og'ir kulfat soldilar. Ba'zilarini, xotto o'ldirib yubordilar. Jumladan, Muhammadraxim Abduraimovning ukasi Isokul Abduraximovni Samarqand qamoqxonasida 6 oy qiynoqqa soladilar. Shundan so'ng „o'g'ling topib bermasang, seni ajal kutayapti“, deb, Muhammadraximning og'asi Abdurahim domlaga dag'dag'a qiladilar. uzoqdan bo'lsa-da, bu gaplardan xabardor bo'lib yurgan Muham- madraham shundan so'ng ixtiyoriy ravishda o'zini podsho xarbiylari qo'lga topshiradi. Uning uchun bundan boshqa yo'l yo'q edi. Muhammadraim Abduraimov rus podsholigining eng kattol dushmanlaridan biri sifatida harbiy dala sudining xukmi bilan shoshilinch dorga tortiladi.

Jazo otryadi Baxmal, G'allaorol, Fxibsga orish tumanlarida qo'zg'olon kishilardan ayovsiz oldi. Podpolkovnik Vodopyanov Sangzor volostida kutarilgan qo'zg'olonlarni bostirishga bevosita boshchilik qilib, Oldoshmon, Boy, Beklar, O'smat qishloqdaridagi uy-joylarga o't qo'ydiradi, qo'zg'olonchi deb gumon qilingan kishilarni tergovsiz, suroksiz ochib tashladi. Jazo otryadi Sangzor volostida qo'zg'olonga boshchilik qilgan To'rako'l qozi Turadbekovni izlab, ko'plab kishilarni xibsga oladi va qozini tutib berishni talab qiladi. Afanasev agar Turaqul qozini tutib jazo otryadiga topshnrimasa, qishloq ahli yoshu qari demay, yoppasiga surgin qilinishini o'qtirib, kiladi.

Ilojsiz kolgan Qo'zi xoji jazo otryadini Beklar kishloqg'ini boshlab borishga

majbur bo'ladi Turaqul qozi bilan urug'dosh, quda-anda bi'lgani uchun afsusnadamat chekib borayotgan Kuzi hoji Sovukbulok kishlog'iga yetay deganda askarlardan namoz o'qib olishga izn so'rab ibodat qilishga kirishadi. Uning xadeganda namozdan bosh kugaravermaganidan shubhalangan askarlar sajdaga bosh kuygan Qo'zi xojini oqlab tashlaydilar.

25 iyul kuni tongda Turaqul qozi butun bir qishloqni qurbon qilmaslik uchun jazo otryadiga bo'yin egib keladi. Bu haqdagi xabar butun Sangzor volosti qishloqdari aholisi o'rtasida xayratomuz tez tarqaldi. Jazo otryadi Turaqul va Eshonqul Turadbekovlar, Rustam Dungaboev, Aliqul O'rayev singari 130 ga yaqinqo'zg'olonchini xibsga olib, Jizzax turmasiga qatnashmadi. 1916 yil 24 noyabrda general-leytenant Ignatevich, xarbiy prokuror Perepilovski ishtirokidagi Xarbiy dala sudi xukmi bilan yuqorida nomlari zikr etilgan qo'zg'olonchilar bilan birgalikda qo'llariga qurol olib xokimiyatga qarshi bosh ko'targan 24 nafar sangzorlik qo'zg'olonchi osishga xukm etilib, 97 kishi turli muddatlarga Sibirga surgun qilinadi. Otishga xukm qilinganlar haqidagi xukm Samarqand shahrida ijro etiladi.²⁰

Jizzaxdagi jadidchilik harakati va qo'zgoning faol qatnashchilari: Ziyosori Abdullayev, Komil hori Bobojonov, Nazirxo'ja Abdusalomov va Nuriddin xoji Ma'rufxo'jayevlar xam dala xarbiy sudining hukmi bilan qatl etiladi. Nuriddin xoji nabiralari Nazira Nabixo'jayeve, Tamara Xodiyeva sobiq Ittifok yillarida bobosining nomini abadiylashtirish borasida bir umr harakat qilishadi. Mustaqillik tufayli ularning istaklari ijobat bo'lib, ular istiqomat qilayotgan ko'cha bobolari Nuriddin xoji nomi bilan atalmoqda.

Jazo otryadi zulmiga qarshi klubi qasos olishga to'lib- toshgan o'g'lonlar orasida Jizzax shaxridagi „Xo'jalik“ maxallasida tavallud topgan jasur yigit Muxammadxo'ja Xamroyev xam bor edi. Bu qo'zgonchi haqidagi asl xaqiqat bilan istiqol va mustaqillikdan keyingina tanishishga musharraf bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanaverib, sargayib ketgan xujjatda bayon qilinishicha,³⁰ bahorni qarshilagan Muxammadxo'ja Hamroyev

²⁰ Haydarov H. Jizzax tarixidan lavxalar. T., 1992y, 62-bet.

qo'zgolonda faol qatnashib, jazo otryadi bilan yuzma-yuz keladi, bosqinchilar zobitini o'ldirib, shaxarning goh u yerida, goh bu yerida yovga zarba berishda do'stlariga boshqosh bo'ladi.

Jazo otryadi qo'lga tushmas qasoskor orqasidan poyloqchi qo'yadi, bu ishda mahalliy sotqinlardan xam ustalik bilan foydalanadi. M. Xamroyev shaxarda Ko'p qo'zg'olonchilarni qo'lga oling va ularni otib tashlashda faol qatnashgan shaxar politsiya jallodi Pavel Vaulinni otib tashlash uchun payt poylaydi va nihoyat 1916 yil 1 avgust kuni kallakesarni otmoqchi bo'lib, to'pponchasini qo'lga olayotgan bir paytda xibsga olinib, shaxar qamoqxonasiga keltiriladi. Xarbiy prokatura tergovchilari kunu-tun inson bolasi chidab bo'lmaydigan darajadagi qiynoqdar bilan tergov ishlari olib boradilar. Biroq Muxammadxo'ja do'stlarini sotmaydi, uni qanchalik qiynoqqa solishmasin, biror-bir ma'lumot ololmaydilar.

Polkovnik Fleyzer raisligidagi harbiy dala sudi Xamroyev Muhammadxo'janing ishi yuzasidan quyidagi xukmni e'lon qiladi: „Jizzax shaxar fuqarosi Muhammadxo'ja Xamroyev barcha huquqdardan maxrum qilinib, eng oliy jazo — osib o'ldirishga xukm qilinsin. Xukm ushbu kundan kuchga kiradi va uni ijro etish Jizzax jazo otryadi boshlig'iga topshirilsin!“.

Istiklol uchun fidoiy kurashchi Muxammadxo'ja 1916 yil 19-avgust kuni O'rdada osib o'ldiriladi. Uning xotini xomilador edi. Muhammadxo'ja o'limi oldidan turmush o'rtog'i Muxarramoyga o'g'il ko'rsang Urinboy, qiz ko'rsang Urinoy deb ism qo'y deb vasiyat qiladi. Muhammadxo'janing vasiyati ijobat bo'lib, u qiz ko'radi. qiziga Urinoy deb ism qo'yadi. Urinoy momo 86 yoshigacha shaxardagi „Madaniyat“ maxallasida istiqomat qilib, vafot etadi.

Qo'zgonchilar ustidan chiqarilgan xukmni ijro qilish uchun Jizzax bozorida (Eski shaxardagi ilgarigi bozor bo'lsa kerak) dor o'rnatiladi. Shaxar axolisini jamlab, „Isyon ko'targanlarning qismati shunday bo'ladi“, deya ko'z-ko'z qilib, qo'zgonchilar dorga osiladi. Ularning jasadi ham berilmay, yarim tunda kallakesarga olib borib dafn etiladi. qo'zgonchilar dafn qilingan joy xaligacha aniqlanmagan.

Turkiston o'lka xarbiy prokurori, okrug xarbiy dala sudining xukmida bayon qilingan aybnomada esa ushbu satrlarni o'qish mumkin: „qo'zgonchilar 13 va 25 iyulda xarbiy

xizmat qoidalarini buzgan xolda front orqasidagi ishlarga, mardikorlikka olish xaqidagi podshoning 1916 yil 25 iyundagi farmoniga qarshi to'pponcha, tayoq, bolta, tosh, qilich bilan qurollanib, Jizzax shaxar mahkamasi jazo otryadi askarlari bilan qurolli to'qnashuvlarda qatnashdilar. Ular Jizzax uezdini Rossiyadan ajratib olib, mustaqil musulmon davlatini tuzish, kelgindilarni Vatan tuprog'idan qo'yib chiqarish uchun xarbiy qismlarga, xarbiy chinovniklarga, uezd maxkamasiga, temir yo'l xizmatchilariga hujum qiladilar. Jizzax temir yo'l bekatini egallab olib, temir yo'l izlarini buzdilar, ko'priklarni, temir yo'l kazarmalarini ko'lga kiritdilar. Jizzax shaxridagi neft mahsulotlari saqlanadigan joyga o't qo'ydilar".²¹

Arxivda saqlanaverib, sargayib ketgan bu xujjatlarni o'qib, jazo otryadi, xarbiy dala sudi, tergovchilarning qatag'onliklari oqibatida qamoqxonalarda jon bergan maxbuslarning nolasi kuz oldingizda namoyon bo'ladi, qalbingizga titroq kiradi. Samarqand viloyat xarbiy gubernatori general Erofevning Jizzax shaxar pristaviga yuborgan 1916 yil 26 iyuldagi shoshilinch nomasida qo'zgon ishtirokchilari ro'yxatini va xujjatlarini darhol yuborish so'raladi. Bu ro'yxatda ko'rsatilgan isyonkorlarning ko'pchiligi xarbiy dala sudining xukmi bilan osilgan, Sibirga surgun qilingan. Ko'plari Vatanga qaytib kelmay, jasadlari uzoq shimol muzliklari ostida qolib ketgan.

Turkiston xarbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni, general-mayor A. Kuronatkinning 1916 yil 9 sentyabrdagi buyrug'ida bayon qilinishicha, xarbiy dala sudining xukmi bilan Jizzax uezdi fuqarolaridan Ismat Turaboev, Ismoil bobo Ro'zimuhammedov, Komil qori Bobojonov, Muxtarxon Eshonqulov, Umir Rizamatov, Xolmat Avazov, Abdukarim Muxam madraximov, Asadullo Abdullaev, Mulla xakim G'oziboev, Mamarasul Mamarajanov, Nosirmaxsum Yo'ldoshev, Muxammadrasul Mirzaboyev, Sultonmurod Muxtorxonov, Muxammadkarim Ortiqboyev, Fayziqul Rajabboyevlar osib o'ldirilganlar.

SHuningdek, buyruqda xalq ozodlik kurashida faol qatnashgan 65 nafar xamyurtlarimiz ham xarbiy dala sudining xukmi bilan osib o'ldirishga qaror qilinadi.

Turkiston general-gubernatori imperatorga bergan mutlaqo maxfiy axborotida qo'zgalon paytida 97 rus askari o'ldirilib, 86 askar yarador bo'lgani va 76 askar bedarak

²¹ O'zbekistonning yangi tarixi. T., 2000 y, 428-429-betlar.

ketgani, 7 rus amaldori xalok bo'lgani, rus axolisidan 2326 kishi o'ldirilib, 1384 kishi bedarak yo'qolganini xabar qiladi. Ammo general-gubernator Turkistonda ko'rgan o'z talafotlarini aniq yozgani holda, vaxshiyona o'ldirilgan minglab maxalliy axoli xisobini bermaydi. Aslida „Mardikorlar ko'zg'oloni“ deb atalmish 1916 yildagi Turkiston milliy-ozodlik ko'zg'olonida qurbonlar nixoyatda katta bo'lgan, yuz minglab kishilar xalok bo'lgan edi. Jazo otryadi tomonidan Turkiston axolisidan 673 ming kishi o'ldirilgan, 300 mingdan ortiq kishi xorijga chiqib ketgan, 1 million kishini mol- mulki talon-taroj qilingan, axolidan otlarning 50 foizi, sigirlarning 39, tuyalarning 55, qo'y va echkilarning 50 foizi nobud bo'lgan va musodara qilingan

Turkistonda, jumladan, Jizzax uezdida qo'zg'olonni jazo otryadi tomonidan vaxshiyona bostirilishi chog'ida yuz berayotgan adolatsizliklar va beboshliqlarni tugatish, bu vokzal arga jamoatchilikning e'tiborini jalb etish maqsadida o'sha davrning o'qimishli va xalq , orasida e'tiborga ega bo'lgan kishilar — Rossiya davlat Dumasiga borib, xalq nomidan murojaat etadilar. Ular Turkiston axolisini mardikorlikka safarbarlikdan ozod etishni, o'lkadagi ayanchli ahvol va musulmonlar xayoti bilan tanishish uchun vakil yuborishni so'raydilar.

Turkiston o'lkasi vakillarining Petrogradga davlat Dumasiga qilingan tashriflaridan so'ng 1916 y il 18 avgustda Duma a'zolari qutladilar amma Botirgareev-Tevkelev va Aleksandr Fedorovich Krsnskiylar Turkistonga tashrif buyuradilar. Ular aholi bilan tanishish maqsadida 1916 yil voqealari eng keskin olgan Jizzax shaxrida xam bo'ladilar. Duma a'zolari 10 kun mobaynida Samarqand, Andijon, Qo'qon, Jizzax va Toshkengda bo'lib axoli bilan suxbatlashadilar. Suxbat qo'zg'olon sabablari, Oliy Farmonni amalga oshirish, g'alayonlarni bostirish jarayonida podsho ma'muriyati va quyi mahalliy ma'murlarning yurgizgan siyosati xaqida borganligi Duma kengashida suzlangan nutqlardan ma'lum. Axoli iltimosiga ko'ra 1916 yil voqealari Turkistonda bo'lib qaytgan A.F. Kerenskiyning nutqi Duma Kengashi kun tartibiga kiritiladi va 1916 yilning 13—15 dekabrda Dumaning yopiq Kengashida muxokama etiladi. Kengashda Turkistonda bo'lib qaytgan A.F.Kerenskiyning nutqi tinglanib, o'lkada yuz bergan voqealarning sabab va

oqibatlari, musulmonlarning ijtimoiy ahvoli muxokama qilinadi. A.F. Kerenskiy boshliq 30 nafar davlat Dumasi a'zolari tomonidan, Ministrlar Kengashi raisi, Xarbiy, Ichki ishlar va Adliya vazirligiga yozilgan murojaatnomada 1916 yilning iyul oyida Turkistonda bo'lib o'tgan daxshatli voqealarni tasvirlab „Ko'p ming tuzemetslar“, jinsi, yoshi farqlanmay jazo ekspeditsiyalari tomonidan yuk qilib yuborilganligi, minglab axoli urintirganligi, Samarqand viloyati, Jizzax viloyatida Jizzax shaxrida, Bog'don, Sangzor ko'llaridat jazo otryadi axolining butun mol-mulki tortib olingani kabi daxshatli voqealar ochiq-oydin beligilib beriladi.

Duma majlisida Dumaning musulmonlar fraksiyasi raisi Qutlug'muxammad Botirgareev-Tevkelev bilan Turkiston qo'zg'olani sabablarini topdi A.F. Kerenskiy boshqa urush Uchoqdagi qatori Turkistonda xam yangi front yuzaga kelganidan shikoyat qilmadi.²²

Duma Kengashining yozma (stenografik) usuldagi xisobotida qayd etilishicha, Kengash ishtirokchilari so'zga chiqqan deputatlar kayd etgan ma'lumotlardan larzaga kelganlar, qo'zgoloni bostirish chog'ida xukumat va ma'muriyat yo'l qo'yg'an vaxshiyliklari keskin ko'rganlar.

Keksalarning aytishlaricha, ko'zg'olonchilar bosib o'ldirilgandan keyin xarbiy maxkamada maxsus ekspertizadan o'tkazish uchun mo'rdalar Samarqand shaxriga olib ketilgani xaqida taxminlar bor.

Xamyurtlarimiz dafn etilgan joyni aniqlash uchun juda Ko'p kishilar bilan muloqotda bo'ldik. 1996 yil iyun oyida „Jizzax ovozi“ gazetasiga ushbu qonli vokea xaqida maqola yozganimizni eshitgan, Jizzax davlat pedagogika institutining O'quv ishlari buyicha rektor o'rinbosari, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent Baxrom Mamajonov o'zining qo'zg'olonda qatnashgani uchun bosib o'ldirilgan Komil kori Bobojon o'g'lining nabirasi ekanligini aytib, Samarqand shaxrida qo'zgolonchilar dafn qilingan joy xaqida gapirib berdi.

²² O'sha joyda. 430-bet.

— Xoxlasangiz, Samarqand tibbiyot institutida kafedra mudiri bo'lib ishlayotgan akam, tibbiyot fanlari doktori, professor To'lqin Mamajonovning uy manzilini beraman. U kishi yo'lni vatanparvar kishilar dafn qilingan joyni ko'rsatadi, — deb qoldi.

Bu xushxabardan mamnun bo'lib, ertasigayoq qo'zg'olonda qatnashgani uchun harbiy dala sudining xukmi bilan bosib o'ldirilgan Ismoil Ruzimuxamedovning nabirasi Narziqul Ergashev bilan Samarqandga yo'l oldik. Professor To'lqin Mamajonov bizni „Musofir mozor“ nomi bilan atalib kelinayotgan qadamjoga boshlab bordi. Bu qadamjo mustaqillikka erishilgandan keyin „Bog'ishamol“ maxalla qo'mitasi va choy qadoqlash fabrikasi rahbariyati raxnamoligida qayta ta'mirlanib, obodonlashtirilibdi. Payg'ambar avlodidan bo'lgan Saidmuso ibn Said Murtoza qabristoni ham ta'mirlanib, masjid qurilib, ziyoratgohga aylatirilibdi. Ziyoratgoh imom xatiblari Xasan aka Xolikov bilan Mirzo Abulqosimovlar bizga quyidagilarni hikoya qilib berdilar:

— Mana bu daxmalar 1916 yili Jizzax qo'zgonida Katnashgan 9 nafar mard inson ko'milgan joy hisoblanadi. Bizlarga marxum otamiz Mirza Xabibov hikoya kilishlaricha,

1916 oylarida yarim tunda boshlariga xalta kiygizilgan bir necha kishining mordalari keltirilib, mirshablar ularning tongga qadar ko'milishi lozimligi, bu ish aholidan sir saqlanishi kerakligi to'g'risida ko'satma berishadi...

Xaqiqatdan ham murdalar o'z kiyimlari va oq matodan tikilgan bosh kiyimida bo'lgan.

Keksalar savob uchun bo'yra ustida yuvib, kafanlab, so'ngra musulmon udumiga ko'ra tilovat qilib ko'mishgan. Mirshablar keksalarga bu ishni sir saqlashni uqtirishib, agar bu sir fosh bo'lsa jazolanishlari haqida tilxat olishgan.

Bu qahramonlar ko'milgan joy 1980- yillargacha sir saqlab, hatto ziyoratgoh imomlarining Jizzax shaxar partiya qo'mitasidan qo'zg'olonchilarning ism-shariflarini aniqlashga yordam berish haqidagi iltimoslari ham oqibatsiz kirdiriladi.

Yurtimiz istihoga erishgandan keyin unutilib ketgan tariximiz, mustaqillik uchun jon fido qilgan vatandoshlarimizning pok nomlari qayta tiklanmoqda. Biz ham Mirzo Abulqosimov hikoyasida keltirgan 9 kishining ismi sharifini aniqlashga harakat qildik. SHu asnoda hamkasbimiz, Samarqand davlat universiteti kafedra mudiri, tarix fanlari doktori, professor III. Pirimqulov o'z arxivida saqlanayotgan Jizzax qo'zgoloni ishtirokchisi, o'sha davrda harbiy dala sudining hukmi bilan osib o'ldirilgan Bobobek Abdujabborovning Samarqand turmaxonasida 1917 yil 1 fevralda tushirilgan suratini bizga taqdim qildi. Bizningcha o'sha yili mazkur turmaxonada yotgan qo'zgonchilar biz izlagan 9 kishi — Komil qori Bobojon o'g'li, Ismoil bobo Ro'zimuhammad o'g'li, Nuriddin xoji Ma'rufxo'ja o'g'li, Muhammad Rahim, Abduraxmon jevachi, Ziyo qori Abdullo O'g'li va boshqalarning murdalari bo'lishi mumkin, degan xulosaga keldik. Jizzax qo'zg'olonida ishtirok etib halok bo'lgan va murdalari o'z tug'ilgan yeriga sig'may, Samarqandga keltirilib dafn etilgan mana shu qadamjoga ular uchun yodgorlik toshi o'rnatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuni afsus bilan aytish o'rinliki, 1916-yilgi Jizzax voqealari to'g'risida Rossiya imperiyasi tasarrufidagi Turkiston general-gubernatorligi ma'murlari va jazo otryadi Qo'mondonlarining axborotlarida qo'zg'olonga noxolisona yondashib, bu kurashni ruslarga qarshi „gazovot“, „fanatiklar harakati“ deb noto'g'ri baho berishgan. Qariyb 70 yil mobaynida Davlat arxivida saqlanayotgan xujjatlar „maxfiy“ deb atalib, tadqiqotchilardan sir saqlab kelindi.

O'zbekistan Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyin tarix haqiqatini ro'yobga chiqarish, tarixiy voqealar va hodisalar qanday kechgan bo'lsa, shundayligicha bayon etish imkoniyati tug'ildi.

1917- yil fevral burjua-demokratik inqilobi arafasida Jizzaxda ham murakkab bir ijtimoiy-siyosiy vaziyat yuzaga kelgan edi. Jizzaxda yashayotgan xalq, ommasi og'ir ijtimoiy va milliy mustamlakachilik zulmini o'z bo'yinlaridan uloqtirib tashlash harakatiga olgan edilar. 1916-yili Jizzax shaxrida ko'tarilgan milliy-ozodlik

qo'zg'oloni mintaqa katta siyosiy voqealar arafasida turganligini ko'rsatdi. Biroq, xalq, ommasining erk uchun, ozodlik va milliy istiqlol uchun olib borayotgan kurashiga boshchilik qilishni eplay oladigan siyosiy kuch — tashkilot hali yo'qligi milliy ozodlik harakatining yengilishiga olib keldi.

1916-yil fevralda Pstrogradda ko'tarilgan ishchi va askarlar qo'zg'oloni natijasida podsho hokimiyati ag'darildi, podsho va uning ministrleri, harbiy ma'murlari qamoqqa olindi.

Podsho hokimiyatining ag'darilgani, Muvakkat hukumatining tuzilganligi haqidagi xabar butun Turkistonga, jumladan, Jizzaxga ham yetib keldi. Turkiston general-gubernatori Kuropatkin va uning yordamchilari qamoqqa olindi. SHaxarlarda, jumladan, Jizzaxda ishchi, dehqon va askarlar Kengashi va Muvakkat hukumatning ijroiya qo'mitalari tuzildi. SHuningdek, Toshkent shaxrida musulmon aholi manfaatini ifoda etuvchi „SHuroy Islom“ markaziy tashkiloti, shaxarlarda, jumladan, Jizzaxda „SHuroy Islom“ning bo'limlari tashkil topdi, ularga jadidlar raxnamolik qildilar.

1916-yil fevral inqilobidan keyin O'rta Osiyoda bo'lgani kabi Jizzaxda ham jadidlarning o'z maqsad va istaklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratildi va bu harakat o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Jizzax xalqining sobitqadam raxnamolaridan bo'lgan Komil qori Bobojon O'g'li va boshqa jadidlar, ruxoniyat arboblari o'z say-harakatlarida faqat mahalliy, hududiy manfaatlar, qiziqishlar bilan cheklanib qolmay, shu bilan birga boshqa mintaqalardagi musulmonlar ommasi, ularning ilg'or vakillari bo'lgan Toshkent shu'basining raxbari Munavvar qori, Samarqand shu'basining raxnamosi Maxmudxo'ja Bexbudiy, Fargona shu'basini boshqargan Nosirxon To'ra, Kamolxon To'ralar bilan aloqa bog'lab ish olib bordilar. Jizzaxlik jadidlar mamlakat boshqaruvida musulmon aholisi vakillarining qatnashishini ta'minlash, aholini ozodlik va mustaqillik sari harakatlantirish yo'lini muvofiqlashtirish borasida ham bir qator ishlarni amalga oishrishga bosh-qosh bo'ldilar.

Rossiyada 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi g'alabasidan so'ng Jizzax shaxrida ham inqilobiy harakat kuchaydi. Chunki Jizzax shaxridagi rus ishchilari va harbiylari orasida ham Rossiya hukumati siyosatidan norozi bo'lganliklari uchun jazo sifatida Turkistonga yuborilgan ishchilar, askarlar, zobitlar, savdogarlar va boshqa toifadagi kishilar anchagina edi. Rossiyada amalga oshirilgan inqilobdan so'ng harbiy qismlarda, shaxardagi sanoat korxonalarida, muassasalarda 1917 yil fevral voqealari munosabati bilan mitinglar bo'lib, ishchilar, hunarmandlar inqilob g'alabasini qo'llab-quvvatladilar.

1916-yilning 20—21 mart kunlari Jizzax shaxri garnizoni askar va zobitlari deputatlarining qo'shma yig'ilishida shaxardagi Muvakkat hukumatning ijroiya qo'mitasiga nisbatan norozilik bildirilib, xokimiyatni ishchi-dehkon va askar deputatlariga topshirish talab qilindi. Shaxarda aprel oyining oxirlariga kelib bolsheviklarning tazyiqi bilan hokimiyat ishchi dehqon va askar deputatlari Kengashi ixtiyoriga o'tdi. Bu davrda shaxarda Muvakkat hukumat ijroiya qo'mitasi tuzilgan bo'lsa-da, amalda u hech qanday qudratga ega emas edi. Jizzax shaxar ishchi-dehqon va askar deputatlari Kengashi faollari 1917-yil fevral inqilobi g'alabasini qo'llab-quvvatlab, aholi o'rtasida ko'plab targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordilar. Barcha jamoat tashkilotlari orasida ishchi-dehqon va askar deputatlari Kengashi katta obro'-e'tiborga ega bo'lib, aholi barcha masalalarni hal qilish uchun ularga murojaat qilar edi.

Chunki Jizzax shaxrida fevral inqilobi tufayli tuzilgan Muvakkat hukumat ijroiya qo'mitasi amaldorlarining asosiy qismi xalqni ilgari ekspluatatsiya qilgan, 1916- yilda Jizzaxda mardikor olishga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga qatnashgan kishilardan ayovsiz o'ch olgan podsho ma'muriyati va mahalliy amaldorlar tashkil etar edi. Bular orasida Turkiston general-gubernatorligi tomonidan tayinlangan Jizzax uezd hokimi, polkovnik v. N. Ryabushkin, uning movini itodnolkovniklar S. Afanasev, N. Fon ijroiya qo'mitasida yuqori lavozimlarida ishlamoqda edilar.

Bundan norozi bo'lgan Jizzax aholisi 1917- yil aprel oyida bu shaxslarni darhol

o'z lavozimlaridan olib tashlash haqida Muvakkat hukumatning Toshkent shaxridagi qo'mitasiga norozilik xatlarini yo'lladilar. Bu davrda Jizzax shaxri va uning atrof qishloqlarida istiqomat qilayotgan kishilar o'rtasida ham norozilik va tanglik tobora kuchayib bormoqda edi. CHunki aholiga solinayotgan soliqning ko'paytirilishi ham ijtimoiy tanglik va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining zo'rayishiga olib kelmoqda edi.

Muvakkat hukumatning idoralari tobora obro'sizlanishi sababli bolsheviklar Jizzaxda ham hokimiyat har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, qo'lga olishlari uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Jizzaxda hokimiyatning ishchi-dehqon va askar deputatlar Kengashi qo'liga o'tishi munosabati bilan harbiy qismlarning askar va zobitlari ham barcha harbiy qo'shinlarda bo'lgani kabi o'z qo'mondonlariga bo'ysunmay qo'ydi. Jizzax garnizonidagi ko'plab askar va zobitlar o'z yurtiga va oilasiga jo'nab ketishdi. Ular bilan birga shaxarda istiqomat qilayotgan rus millatiga mansub kishilarning ham ommaviy ko'chib ketishi yuz berdi. Ishchi-dehqon va askar deputatlari Jizzax Kengashi 1917 yil 30-iyulda Jizzax temir yo'l ishchilari va xizmatchilaridan iborat o'z bo'limini tuzdilar, boshqa joy- larda ham hokimiyatni qo'lga olishga harakat qildilar.

III. Yangi pedagogi texnologiya uslubi asosida darsni tashkil etish

Jizzax Rossiya Imperiyasi mustamlakachilik siyosati davrida (Jizzax qo'zg'oloni) mavzusini o'tishda zamonaviy pedagogika texnologiyalardan foydalanish usullari.

Respublikamizda ta'lim – tarbiya tizimidagi islohotlar tizimini tubdan o'zgartirish, uning ilmiy ruh bilan sug'rish samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amalda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog'liq. Bu qonunlarda har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash va kelajak avlodaga yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib dars o'qitishni ta'minlashni belgilab beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda asosiy vazifa qilib, “yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqarishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur” ligini belgilab berdi.¹

Bu milliy dasturning 2 chi (2001-2005) va 3 chi bosqichda (2005) “Ta'lim muassasalarini moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi. O'quv tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyot”.

Pedagogik texnologiya nima?

Texnologiya yunoncha “techre” san'at va mahorat ta'limot, fan so'zlaridan tashkil topgan. Bu so'z fanga 1872 – yilda kirib kelgan. Metodika bir xil mazmundagi uslub va usullar qo'llaniladi. Demak texnologiya kengroq tushuncha ekan, faqat bilim berish emas, balki aniq maqsad natijaga yo'nalitirilgan ta'lim jarayoni hamdir.

Texnologiya esa qanday qilib qaysi usul va vositalar bilan o'qitilsa, yaxshi natija berishini ko'rsatadi. Hozirgi kunda respublikamizning ko'pchilik

¹ I.A.Karimov. “Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori” Toshkent-1997 y. 36-bet.
Ta'lim to'g'risidagi qonun Toshkent – 1997 y.

manbalarida avvaldan amalda bo'lgan tarixni an'anaviy usuldan foydalanib o'qitish asoslari XVII asrda vujudga kelgan. Bu usul ta'lim tarbiyani bir xil qolipda, chetga chiqmasdan olib borishni taqazo etadi. An'anaviy dars usuli o'zining quyidagi belgilariga ega.

O'quvchilarda maktabga qadam qo'yaganida bir xil yoshda taxminan bir xil tayyorgarlikka ega o'quvchilardan tarkib topgan sinf maktabni bitirgunga qadar saqlanib qoladi.

O'quvchilar oldindan tasdiqlangan yagona o'quv rejasi va dasturlari asosida belgilangan o'quv yilida bu shunga ko'ra kunning ma'lum paytida o'qishga keladilar. Mashg'ulotlar dars sifatida olib borilib, unda ma'lum mavzu o'qitiladi va butun sinf aynan bir xil tushuncha ham yo'q emas. Metodika bir xil mazmundagi uslub va usullar qo'llanadi.

Pedagogik texnologiya esa turli xil vosita va usullardan foydalanishni talab qiladi. Ta'lim berayotgan o'qituvchining shaxsiy mahorati va harakteri metodikada aks etadi. Texnologiya esa qanday qilib, qanday usul va vositalar bilan o'qitilsa yaxshi natija berishini ko'rsatadi. Hozirda mashg'ulotlar dars sifatida olib borilib unda ma'lum mavzu o'qitiladi va butun sinf bir mashg'ulot va material ustida ishlaydilar. O'qituvchi yil davomida o'quvchining bilimi, malakasi ko'nikmalarini baholab beradi. Aytish lozimki an'anaviy dars usuli o'z yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklarga ham ega.¹

Usul bir qolipda tuzilgan bo'lib dars soatlari ratsional tasdiqlanmagan. Dars davomida o'quvchilarni bir – birlari bilan muloqotlari to'la yo'lga qo'yilmaydi. Mustaqil fikrlar past darajada. Bu an'anaviy usul bilan o'quvchilarga zamon talablariga mos ta'lim bera olmaymiz. An'anaviy usul bilan davlat ta'lim standartlari darajasida bilim ko'nikma, malakani shakllantirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida an'anaviy dars usulini taqozo etadi.

¹ T.Sodiqov. "Tarix o'qitish metodikasi" T-1983 y.

N.Saidaxmedov. "Yangi pedagogika texnologiyalari" Toshkent – 2003y. 37-bet.

Tarixni o'qitishda pedagogika texnologiyaning bosh vazifalarda biri davlat va o'z mavzuda o'quvchilarni qanday bilim va malakalarga ega bo'lishini ishlab chiqishdan iboratdir. O'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga bilimga nisbatan ehtiyoj sezishga o'rgatish aynan shu pedagogik texnologiyada erishiladi. Shuning uchun obyekt tomonidan mo'ljallangan maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetishi unga erishishga harakat qilish lozim. Demak, pedagogika texnologiyalarning maqsadi o'quvchida tashabbuskorlik, mustaqillik, kuzatuvchanlikni bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirishdan iborat. Axborot texnologiyasi bu dars davomida axborot vositalari texnologiyalardan to'liq foydalanadi. Sababi bu yoshdagi o'quvchilarda to'liq axborot texnologiyalarini ko'nikmalarini shakllantirishga ulgurgan.

Darslarda bunday texnologiyalarni o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llash mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar bilan bularni to'liq qabul qila olmaydilar. Shu o'rinda bu yoshdagi xususiyatlariga to'xtalib o'tish lozim. Bu davrda bolalikda kattalik jarayoniga ko'chish sodir bo'ladi. Bu yoshda psixologik jarayonning muhim hislat – voyaga yetish kattalik xossasining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Shundan darsda, kinoda foydalanishda quyidagi metodlardan foydalanish kerak.

1. O'quvchi kinofilmdan foydalanishdan avval uni o'zlari albatta ko'rishlari kerak.
2. Kinofilm dars mazmuniga singib borishi darsning asosiy maqsadiga muvofiq bo'lishi kerak.
3. Kino materialarini namoyish qilishdan avval o'quvchilarga 1-2 savol berish, keyin shu savol yuzasidan suhbat o'tkazish.
4. Kino materialining hammasi ta'limning boshqa vositalari kitob, xotira kabini o'quvchiga yetkazish.
5. Darsda foydalanilgan kinofilm yuzasidan uyga vazifa berish kelgusida darsda uni so'rash lozim.

Demak, biz yuqori sinflarda hamma foydalanishi mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar aynan mana shu yo'nalishga ya'ni kinoga yaxshi munosabat bildiradi.

Xulosa

Vatanni onaga qiyoslaydilar. Zero bu bejiz emas. Ona siymosida bolaga oq, sut bersa, ona-vatan xalqini, elini e'zozlaydi, tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi. Inson uchun ona-vatandan boshqa aziz va mo'tabar, muqaddas narsa yo'q va bo'lmaydi ham.

Xalqimiz Vatan ostonadan, inson tug'ulib, ko'z ochgan go'shadan, kindik qoni tomgan xonadondan, tuproqdan boshlanadi deyishadi. Bu haq gap. Insonning qalbi, orzu- umidlari, quvonchlari kelajagi ona-Vatani bilan bog'liq kechadi. SHu boisdan ona-Vatanga mexr-muhabbat va sadoqatli bo'lish, uning har hovuch muqaddas tuprog'ini to'tiyodek ko'zga surtish, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashash, uni e'zozlash har bir kishi uchun ham farz, ham qarzdir.

Bizning borlig'imiz, tilimiz va tafakkurimiz, madaniy etnik. qiyofamiz, udum va an'analarimiz, milliy tuyg'ularimiz — bularning barchasi Turon, Turkiston, O'zbekiston deya atalmish muqaddas Vatanimiz, uning qadimiy shaxri Jizzax nomi bilan mushtarak. CHunki qadimiy Jizzax voxasi ham O'zbekistonning otabobolarimiz yashagan, kindik qoni to'kilgan, kelajak avlodlariga boshpana, baxt va saodat bera olgan muqaddas zamini hisoblanadi. Jizzax diniy va dunyoviy nuqtai nazardan haqiqiy ma'noda Allox nazari tushgan, nafaqat islom ta'limoti, balki kalom falsafasi, shariat ustunlari yetishib chiqqan qadimiy tarixga ega bo'lgan yurt hisoblanadi.

Jizzax qal'a shaxri Nurota va Turkiston tizma tog'larini ajratib turuvchi, kengligi 120 — 130 metrga to'g'ri keluvchi Ilono'tti (Temur darvozasi) darasining shimoliy qismida Sangzor vodiysida shakllangan qadimiy shaxardir.

Sharqni G'arb bilan bog'lovchi qadimiy BuYuk Ipak karvon yo'lining aynan Ilono'tti darasidan o'tishi shaxar mavqeining o'sishi va savdo markaziga aylanishiga sabab bo'lgan. XIX—XX asrlarda barpo etilgan Krasnovodsk— Toshkent temir yo'li va Katta O'zbekiston traktining Jizzax orqali o'tishi shaxar rivojida, uning

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ro'l o'ynadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdukaniyevich Karimov: „Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi“, deb takidlagani bejiz emas. 1996 yil 26 oktabr ko'pi Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining sessiyasida so'zlagan nutqida: “Jizzax ikki ming yildan ko'proq tarixga va go'zal tabiatga ega bo'lgan qadimiy maskan O'zbek xalqining ko'p-ko'p asl farzandlari mana shu zaminda tarbiya topgan, o'z fidoyiligi bilan el-yurtimizning obro'siga obro', salohiyatiga salohiyat tushgan, tarixda o'zlarining pok nomlarini qoldirgan“ deb ta'kidlab mutaxassislarni kelgusida ushbu qadimiy shahar tarixini mukammal o'rganishga da'vat qilgan edi.

O'tmishda kichik qal'a shaharcha bo'lgan, mustaqilligimizni qo'lga kiritganligimiz tufayli ijtimoiy-iqtisodiy sohalari, sanoati taraqqiy qilgan, xalq ta'limi va madaniyati rivojlanayotgan Jizzax shaxri tarixini bugungi kunda istiqloq sharofati ila chuqurroq o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Kitobxonlar hukmiga havola qilinayotgan mazkur kitobda shaharning o'tmishi va buguni, maorif va madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda kelajak taraqqiyoti, uning mehnatsevar kishilarining bunyodkorlik yo'lida qo'lga kiritayotgan yutuqlari bayon etilgan.

Jizzax — O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan bo'lib, miloddan avvalgi bir minginchi yillarda yuzaga kelgani ko'plab tarixiy manbalarda tilga olinadi. Boy tarixga ega bo'lgan shahar urbanistik jarayonining Yuzaga kelishi bronza davriga borib taqaladi. Tarixchi arxeolog olimlar tomonidan shaharning yoshini aniqlash, uning tarixiy obidalari qoldiqlarini o'rganish borasidagi tadqiqot ishlari davom etmoqda.

Mavjud tarixiy manbalar Sharqni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ustidagi chorrahada, qulay geografik hududda joylashgan Jizzax shaxrining yoshi ming-ming yillar bilan o'lchanishidan dalolat bermoqda. Jizzax xalqlar davomida turli mamlakatlar, hukmdorlar, bek amaldorlar, olimu shoirlar, din rahnamolari,

oddiy kishilar, xullas, barcha-barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. "Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori" T., 1977.
2. Karimov I. A. O'zbekiston : Milliy istiqlol, istiqlol, siyosiy, mafkura. T. 1996.
3. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va yangilash – davr talabi. 8- jild- T., 2000y
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburmoma, T., 1999.
5. Hofiz Tanish al- Buxoriy. Abdullanoma. T., 1999.
6. Avaz Muhammad Attor Huqandiy. Tarixi jahonnomayi, T.1992.
7. Mulla Olim Mahmud Xo'ja. Turkiston tarixi. T., 1975.
8. Bozorov Hotam. Jizzax muzofotining hakim hokimlari haqida. "Jizzax ovozi" gazetasi, 2000-yil, 15-aprel.
9. Ziyoyev Hamid. Turkistonda Rossiya tajovuzi va zo'ravonligiga qarshi kurash. T. 1998.
10. Ziyoyev Hamid. Chorizm va paxta yakka hokimligi. T.1991.
11. SHaripov B., Pardayev A. Marifat m..xoni. Jizzax, 1987.
12. Rajabov S. O'zbekiston sovet maktabiga doir. T.1957.
13. Safarov N.Navro'z. T.1977.
14. Sodiqov H. Arafa. "Guliston". 1996. 7-son.
15. Sodiqov T. "Tarix o'zining metodikasi. T., 1983.
16. Saidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalari". t.2003.
17. O'zbekistonning yangi tarixi. T.2000.
18. G'ulomov E. SHonli yo'l. Jizzax. 1990.
19. Воспитание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. М. 1960.
20. Qosimov S., Qosimova G. Mustamlaka yillarida Jizzax viloyati territoriyasida aholiga tibbiy hizmat ko'rsatishning ahvoli. T.1964.
21. Haydarov H. Jizzax tarixi. T.2009.
22. Haydarov H. Jizzax tarixidan lavhalar. T., 1992.
23. Haydarov H. Jizzax viloyati tarixi. T.1996.

24. Abdullayev Ortiqboy. Turkistonning qora kunlari. "Sharq yulduzi" 1992-yil, 12-son.